

X. Babaxanova

BOSISHGACHA BO'LGAN JARAYON USKUNALARI





681.3
5-12


**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

X.A. BABAXANOVA

BOSISHGACHA BO'LGAN JARAYON USKUNALARI

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
tomonidan darslik sifatida tavsiya etilgan*

TOSHKENT 2008



X.A.Babaxanova. Bosishgacha bo'lgan jarayon uskunalari. T., «Aloqachi», 2008, 208 bet.

Ushbu darslik bakalavrlar uchun mo'ljallangan bo'lib, unda bosma mahsulot ishlab chiqarish jarayonida ishlatiladigan zamonaviy terish va bosma qolip tayyorlashda qo'llanadigan uskunalar, ya'ni tasvirni tahlil qilish uchun skanerlar, lazer fotonabor avtomatlar, lazerli va oqimli printerlar, nusxa ko'chiruvchi ramalar, ofset va fotopolimer plastinalarga ishlov berish uchun protsessorlar haqida ma'lumot keltirilgan.

Taqrizchilar: t.f.n., «Matbaa va bosma mahsulotlar dizayni» kafedrası dotsenti S.R.Kamalova;
t.f.d., professor, «Sharq» NMK direktori o'rinbosari O.R.Rahimov.

ISBN 978-9943-236-30-9

© «Aloqachi» nashriyoti, 2008-y.

SO'Z BOSHI

Har bir talaba, ya'ni bo'lajak mutaxassis bosma mahsulot ishlab chiqarishning asosiy prinsiplarini bilishi, o'z kasbining umumiy ishlab chiqarishdagi tutgan o'rni to'g'risida aniq tasavvurga ega bo'lishi zarur. Bu darslikning asosiy maqsadi bosma mahsulot ishlab chiqarish asosiy prinsiplari bilan birga bosma qolip tayyorlash jarayonlari, asosiy ishlatiladigan texnikasi va jihozlari bilan tanishtirishdir. Bu prinsiplar asoslarni o'zlashtirish talabi asosan zarur bilim doirasini egallash, keyinchalik esa malakaviy bitiruv ishini bajarishda o'zi tanlagan mehnat faoliyati sohasidagi ma'lumotlarini kengaytirishga yordam berishdan iboratdir. Talaba kitoblarni yuqori sifatli bo'lishini, ularning ichki va tashqi bezalishi ma'nosiga mos ta'minlanishini o'rganadi.

Matbaa sanoati murakkab ishlab chiqarishdir. U fan-texnika-ning eng yangi yutuqlaridan (elektron-hisoblash mashinalari, lazerli qurilmalar va h.k.) foydalangan holda tobora takomillashib va rivojlanib boradi. Bunday uzluksiz takomillashuv matbaachilarning umumiy va maxsus tayyorgarchilik darajasini muttasil oshira borishini, ulardan o'z ishlarida ijodiy yondashishni talab qiladi.

I bob

TASVIRNI KIRITISH VA RAQAMLASHTIRISH QURILMALARI

Elektron-graviroval avtomatlar 50-yillardan boshlab yuqori bosish usuli uchun bosma qolip (klishe) tayyorlashda, elektron-graviroval avtomatlari va elektron rang ajratuvchi — rang korrektorlari 60-yillarda chuqur bosish usulida bosma qolip tayyorlash uchun ishlatilar edi. Bu uskunalarda tasvirning har bir nuqtasi o'qilib, elektr signalga aylantiriladi va ularga ishlov beriladi, korrrekturalanadi.

Elektron texnikaning paydo bo'lishi va ishlab chiqarish jarayonida keng qo'llanilishi skanerlarning paydo bo'lishiga sabab bo'ldi.

1.1. Umumiy ma'lumotlar


Hozirgi bozor iqtisodiyoti davrida matbaa sohasini elektron texnikasiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Jurnal, gazeta va har xil o'lchamdagi bosma mahsulotdagi matnli va rasmlı axborotlar kompyuter xotirasiga kiritiladi va ishlov beriladi.

Bosishgacha bo'lgan jarayonda rasmlı axborotlarnı kompyuter xotirasiga kiritish, tasvirni raqamlashtirish, ya'ni tasvirni raqamlar yordamida ifodalashda maxsus qurilmalar: skaner va raqamli fotoapparatlar qo'llaniladi.

Skanerlar — matn, rasm, slaydlardagi tasvirni kompyuterga kiritish uchun qo'llaniladi. Skaner tasvirni o'qiganda uni (disk-replaydi) alohida nuqtalar birligida (piksellar) har xil optik zichligida ifodalaydi (1.1-rasm). Nuqtalarning optik zichligi tahlil qilinib, ikkitali raqamlarga aylantiriladi va yana ishlov berish uchun qaytadan kiritiladi.

Skanerlarning texnik xarakteristikadagi asosiy ko'rsatkichlari: imkonli qobiliyat, rang chuqurligi, optik zichlik dinamik diapazoni, skanerlashning maksimal o'lchamlari.

Fotoelektron ko'paytiruvchi fotopriyomniklar baraban turdagi skanerlarda yorug'lik sezuvchi qism sifatida ishlatiladi (1.2-rasm).



1.2-rasm. Baraban turdagi skanerda FEU ishlash sxemasi.

FEU ksenon yoki volfram-galogen lampalardan tasvirga tushayotgan yorug'likni kuchaytiradi.


Asl nusxalarni skanerlash mexanizmi. Skanerlarni quyidagi ko'rsatkichlar bo'yicha klassifikatsiyalash mumkin (1.3-rasm):

- asl nusxaning joylashuviga qarab – tekis (planshet), proektsion, baraban turdagi;
- skanerlarda asl nusxalar ko'zg'aluvchan va qo'zg'almaydigan;
- o'qiladigan asl nusxalar turlariga qarab – oq-qora va rangli;
- skanerlash tartibiga qarab – rangli tasvir bitta borib kelishda o'qiladi yoki uch bosqichda;
- skanerlash texnologiyasiga qarab – FEU li, bitta yoki uchta chizg'ichli PZS li, matritsali PZS;
- harakatdagi optik detallar, aylanuvchan o'qish detali va gibrid, bunda oyna va o'qish detali harakat qila oladi (faqat planshet skanerlarda).

Planshet turdagi skanerlar dunyoda keng tarqalgan bo'lib, ochiladigan yoki yechiladigan qopqog'i bo'lgani uchun jurnal, kitoblardagi tasvirlarni skanerlash imkonini beradi.

Baraban turdagi skanerlarda asl nusxa yuqori tezlikda aylanadigan shaffof baraban yuzasiga mustahkamlanadi. O'qish detali

asl nusxaga yaqin joylashtirilgan bo'lad, bu esa yuqori sifatda shaffof va noshaffof asl nusxalarni skanerlash imkoniyatini beradi.



1.3-rasm. Skanerlash mexanizmlari klassifikatsiyasi.

Odatda, baraban turdagi skanerlarda uchta FEU o'rnatilgan bo'lib, tasvir bitta borib kelishda skanerlanadi. Ba'zi bir skanerlarda FEU o'rniga fotodiod ishlatiladi.

Raqamli fotoapparat (raqamli kamera) — bunda tasvir plyonkaga emas, PZS matritsalariga ko'chiriladi va raqam ko'rinishida saqlanadi. Raqamli fotoapparatlar texnik xarakteristikasini skanerlar xarakteristikasiga, ya'ni dinamik diapazoniga, qobiliyat imkoni, skanerlash texnologiyasiga qarab ajratish mumkin.

1.2. Skanerlarning asosiy konstruksiyasi

Yorug'lik manbai sifatida lyuminissent, metallogalogen va ksenon lampalar va lazerlar qo'llaniladi.

Fotopriyomniklar. Planshet va proyeksion turdagi skanerlarda zaryad aloqali priborlar (PZS), baraban turdagi skanerlarda — fotoelektron ko'paytiruvchilar (FEU) va fotodiod (FD) ishlatiladi.

Ranglarga ajratuvchi oynalar va prizmalar. Ranglarga ajratuvchi oynalar kulrang va dioxroik turlarga bo'linadi. Oxirgi turlarning asosiy xususiyati shundaki, tushayotgan nurning bir qismini aks ettiradi, qolganini esa o'tkazib yuboradi. Kulrang ajratuvchi oyna-

lar yorug'lik nurining rangini o'zgartirmasdan o'tkazadi. Dixroik oynalar esa nurni ko'k, yashil va qizil spektrlarga ajratadi.

Svetofiltrlar (yorug'lik filtrlari). Optik xususiyatlarga ko'ra neytral (kulrang), rangli va issiqlikni himoyalovchi turlarga ajratiladi.


Neytral svetofiltrlar tushayotgan oq nur oqimini bir tekis o'tkazib yuboradi.

Rangli svetofiltrlar tushayotgan oq nur oqimini uzunligiga qarab qisman o'tkazib yuborish xususiyatiga ega.

Issiqlikni himoyalovchi svetofiltrlar yashil rangga bo'yalgan SZS markali oyna bo'lib, infraqizil nurni yutib oladi, spektrning ko'rinadigan nur oqimini esa o'tkazib yuboradi.


1.3. Skanerlar tuzilish sxemasi

Planshet skanerda asl nusxa tekis qo'zg'almas yoki qo'zg'aladigan tekislikda joylashtiriladi (1.4-rasm). Skanerlashda tasvir qatorma-qator, ketma-ket o'qiladi. Bu skanerlarda tasvir obyektiv va linza yordamida chizg'ichli zaryad aloqali priborlar (PZS)ga tushiriladi.



1.4-rasm. Planshet skanerning ishlash mexanizmi.

Qo'zg'aladigan yuzada asl nusxa ushlagichli skanerning ishlash prinsipi 1.5-rasmda ko'rsatilgan. Noshaffof asl nusxa (2) elektrodvigatel, (4) va boshqarish bloki, (5) dan ishlaydigan vint-gayka, (3) yordamida harakatlanadigan tekis asl nusxa ushlagich (1) ga mustahkamlanadi. Asl nusxaga lampa (13) va aks ettiruvchi (12) dan nur tushiriladi. Asl nusxadan aks ettirilgan nur oyna (12) orqali obyektiv (8) ga yo'naltiriladi.



1.5-rasm. Qo'zg'aladigan asl nusxa ushlagichli skanerning ishlash prinsipi.


Obyektiv (8) esa tasvirni PZS chizg'ichning ish yuzasida kichraytirilgan tasvir qatorlarini hosil qiladi. Lampa (13), optik sistema elementlari (12) va (8), PZS chizg'ichi (7) bu qurulmada qo'zg'almas.

PZS asl nusxadan aks ettirilgan nur signallarini analogli elektr signalga aylantiradi. Analogli signallar blok (9) da kuchaytiriladi va raqam shakliga keltiriladi. Raqamli signallar xotira buferi (10), keyin esa interfeys (11) ga tushiriladi. Interfeys orqali signallar EHMga uzatiladi.

Qo'zg'almas asl nusxa ushlagichli skanerning ishlash prinsipi 1.6-rasmda ko'rsatilgan.

Asl nusxa (1) qo'zg'almas ushlagich (2) ga mustahkamlanadi. Ikkita karetk (5) va (17) harakatlanishi tufayli tasvir asta-sekin skanerlash uchun ochiladi. Asl nusxadagi qatorlar PZS (8) ga aniq


tushirilishi uchun karetk (5), yoritgich (3), oynalar (4), (16), (18) joylashgan karetkaga nisbatan ikki barobar katta tezlikda harakatlaniishi kerak. Karetkaga elektrodvigatel (12), reduktor (13) va baraban (14) joylashgan. Baraban (14) da tros (20) o'ralgan bo'lib, qo'zg'almas blok (19) o'rnatilgan hamda karetk (5) ga mustahkamlangan. Karetk (17) da joylashgan blok (6) da karetk (17) uchun tross (7) o'tkazilgan. Tross (7) ning bitta tomoni karetk (5) ga, ikkinchi tomoni skaner korpusiga mustahkamlangan. Tross (7) da prujina (15) ning bitta uchi skaner korpusiga, ikkinchisi esa karetk (17) dagi qo'zg'almas blok (9) dagi tross (10) ga o'ralgan.



1.6-rasm. Qo'zg'almas asl nusxa ushlagichli skanerning ishlash prinsipi.

Proyeksion skanerlar fotografik kamera singari ishlaydi. Asl nusxa tasviri old tomoni bilan vertikal shtativga mustahkamlanib, skanerlash kamerasi ostiga joylashgan. Skanerlash kamerasi tasvir o'lchamiga va imkonli qobiliyatga ko'ra linza yordamida yuqori aniqlikda ishga tayyorlanadi. Tabiiy yorug'lik yetarli bo'lgani uchun ichki yorug'lik manbai ishlatilmaydi. Kamera ichidagi kichkina dvigatel PZS chizg'ichini harakatlantiradi. Proyeksion skanerning ishlash sxemasi 1.7-rasmda keltirilgan.

Yorug'lik linzadan asl nusxaga tushib, aks ettirilgan nur PZS chizg'ich yoki PZS matritsa yordamida fiksatsiyalanadi (1.8-rasm).



1.7-rasm. Proyeksion skanerning ishlash sxemasi.

Proyeksion skanerlarning afzalligi:

- asl nusxani skanerlash qulay, chunki ishlov berilayotgan tasvir operatorga qaratilib joylashtiriladi, bu esa to'g'rilash jarayonini yengillashtiradi;


- kam joy egallaydi, skanerlanayotgan tasvirdan salgina katta;
- juda katta hajmdagi asl nusxalar qismlarga bo'linib skanerlanadi;

- skanerning avtomatik rejimda ishlashi.

Muqovalangan asl nusxalarni skanerlash qiyinchilik tug'diradi, negaki ulardagi varaqlarni bosib turish uchun oyna ishlatishga to'g'ri keladi, bu ularning kamchiligi hisoblanadi.

Baraban skanerlarning narxi qimmat, lekin ular yordamida yuqori aniqlikda tasvir olish hamda bosma qolip tayyorlash uchun fotoqolip tayyorlash mumkin.

Asl nusxalar baraban turdagi skanerlarda maxsus lenta yoki yog' yordamida shaffof silindr yuzasiga mustahkamlanadi. Baraban yuqori tezlikda aylanadi, skanerlovchi fotopriyomnik esa tasvirni yuqori aniqlikda har bir nuqtasini ketma-ket o'qiydi. Fotopriyomnik o'rnida ko'pincha FEU ishlatiladi.



1.8-rasm. Baraban turdagi skaner:
a – dixroik oynali; b – rangga ajratuvchi prizmalı
Fujifilm FineScan 2750.

Asl nusxani yoritish uchun quvvatli ksenon yoki galogen yorug'lik manbai qo'llaniladi. Yorug'lik asl nusxadan oynalarga va uchta rangga ajratuvchi RGB-filtrlardan o'tib boradi.

Dixroik yarim shaffof oynalar spektrga qarab aks ettirish va o'tkazish xususiyatlariga ega (1.8-rasm). Birinchi oyna – faqat uzun to'liqli (qizil-sarg'ish) spektrda, ikkinchi oyna – o'rta to'li-

qinli (sariq-yashil) spektrda; uchinchi oyna — faqat qisqa to'liqinli (ko'k-binafsha) spektrda yorug'likni aks ettiradi.

Maxsus ranglarga ajratuvchi prizmalar ham shu maqsadda ishlatiladi, lekin ular faqat ikkita dixroik filtr (yashil va ko'k) dan iborat.

Asl nusxa shaffof yoki noshaffof bo'lishiga qarab baraban ichki tomonidan yoki sirtidan yoritiladi. Fotokallakka joylashgan fotoelektron ko'paytiruvchilar (FEU) yorug'likni qabul qiladi va filtrlangan yorug'likni kuchaytiradi. Qabul qilingan signallar raqamli kodlarga aylanadi.

Baraban turidagi skanerlar yuqori optik zichlikdagi asl nusxalarni 24000 dpi gacha skanerlash qobiliyatiga ega.

1.4. Planshet skanerlar

Fujifilm S-550 Lanovia Sprint skaneri — A3 o'lchamli hujjatlarni skanerlashga mo'ljallangan.

Bu uskunaning imkoniyati 5000 dpi:

- Qattiq jisimli konstruksiyaga ega;
- Blok sistemasida joylashgan vint yordamida ishga tushiriladi;
- Avtomatik tarzda obyektiv orqali ishga sozlanadi;
- Skanerlash jarayonida parallel tarzda asl nusxa kamchiliklari ustida ish olib boriladi;

— Ishlash tezligi — 88x35 mm rasmlarni (slyayd) bir soat davomida skanerlaydi

— Bu uskuna ColourKit/C-Scan Apple Macintosh dasturi bilan ta'minlangan.

Fujifilm Lanovia Quattro — A3 o'lchamdagi hujjatlarni skanerlash uchun qo'llaniladi.

Bu uskunaning imkoniyati 5000 dpi:

— Asl nusxani siqib turish uchun prujina bosimidagi Nyuton oynachasi bor.

— Skanerlanadigan obyektning hamma qismlarini yuqori sifat darajasida skanerlaydi.

— Optik sistema avtomatik tarzda ishlaydigan obyektiv bilan ta'minlangan.

— Parallel usulda ham skanerlash hamda nusxalar kamchiliklari ustida ish olib boriladi.

— Bir soat davomida 6x7 kattalikdagi 40 ta rasmni (slyayd) skanerlash imkoniyati bor.

– Bu uskuna ColourKit uchun Apple Macintosh dasturi asosida ishlaydi.

A3 o'lchamdagi hujjatlarni skanerlash uchun moslashgan.

Skanerlarning texnik ko'rsatkichlari

	S-550 Lanovia Sprint	Lanovia Quattro	Fine Scan 2750
FujiFilm CCD element lineykasi	8000	10500 (RGB), 16800	10500
Dinamik diapazon D	0.0-3.9	0.0-3.9	0.0-3.7
Raqamlashtirish razryadi	16-bit (48-bit RGB)	16-bit (48-bit RGB)	14-bit (42-bit RGB)
Optik imkoniyati, dpi	5000	5000, 2743, 1666 va 762	2743 va 762
Mak.o'lchami, mm	470x350	470x350	470x350

Bu uskunaning imkoniyati 2743 dpi:

– Asl nusxani siqib turish uchun prujina bosimidagi Nyuton oynachasi bor.

– Skanerlanadigan obyektning hamma qismlarini yuqori sifat darajasida skanerlaydi.

– Optik sistema avtomatik tarzda ishlaydigan obyektiv bilan ta'minlangan.

– Skanerlash hamda nusxalar kamchiliklari ustida ishlash bir paytning o'zida bajariladi.

– Skanerlash tezligi – bir soatda 6x7 sm o'lchamdagi 15tagacha rasmni (slayd) skanerlash imkoniyati bor.

– Bu uskuna ColourKit uchun Apple Macintosh dasturi bilan ta'minlangan.

1.5. Baraban skanerlar

Baraban skanerlar bozorida yetakchi o'rinni Heidelberg Pre-press firmasi tomonidan ishlab chiqarilgan DC 3000 nomli skaner o'n yillar davomida egallab turibdi. Hell firmasi tomonidan ishlab chiqilgan rangli skanerlar S3300, S3500, S3700 tarixiy sahifasini davom ettirib kelmoqda.

Bu skanerlarni ishlatish jarayonida ularning bir qancha qulayliklari va ishonchli tomonlari borligi ma'lum bo'ladi. Jahon bozo-

rida 1994-yilda sotilgan baraban skanerlarning 40% Heidelberg Prepress firmasining mahsulotlaridir.

1998-yil dastlab DC 3000 toifasiga mansub skaner bilan Linotype Hell nomli firma, bugungi Heidelberg Prepress bu kungacha S2500 yuqorida nomi tilga olingan skanerlarni va S3500 ishchi kuchlar uchun joy yaratib ChromaMount, ChromaSet, PowerBox ga o'xshash o'ziga xos skaner uskunalarini ishlab chiqardi.

ChromaGraph S3400 ning ishlash prinsipi S3900 ga o'xshaydi, unda skanerlash jarayonida uchta baraban ishtirok etadi, orasidagi farq shundaki S3400 da ColorPilot sistemasining mavjudligidir.

S3900 high-end sistemasi — yuqori saviyada ishlashni ta'minlovchi sistema asosida ishlab, skanerlovchi stansiya deb ataladi.

Heidelberg Prepress skanerlari bugungi kunda Tango va Tango XL, shuningdek, ChromaGraph S3900, ChromaGraph S3400 lardir. Bu modellar — baraban skanerlarini yangi pog'onaga olib chiqdi.

Tango. Heidelberg Prepress firmasining bitta barabanli oxirgi modeli Tango deb nom oldi. Boshqa turdagi modellar kabi, faqat bundan ChromaGraph S3900 mustasno, u SCSI interfeys orqali tasvirni qayta ishlovchi kompyuter markaziga ulanadi (Bu holatda ulanuvchi kabelning uzunligi 6 m dan oshmasligi kerak). Tango skaner Lino Color dasturi asosida ishlaydi. Har bir Tango skaner o'ziga xos o'lchamlarga ega. Bu to'g'risidagi ma'lumotlar disketda yoki kompakt diskda joylashgandir, bu qismlar komplekt shaklda yuboriladi.

Rangli va oq-qora asl nusxalarni skanerlash mumkin. Bu skanerlarda yorituvchi manbaa sifatida galogen lampasi xizmat qiladi.

Kichkina muammo sifatida skanerda asl nusxalar egiluvchanligi va ularning kattaligi maksimal 480x450 mm dan oshmasligidir.

Ish jarayonini amalga oshiruvchi protsessor nusxani o'lchab, barcha o'lchamlarini 20 dan 3000 foizgacha oshirib beradi.


Ever Smart skanerlar slaydlarni, negativlarni, suratlarni rastrlashda (avtomatik difokusirovka bilan) va uch o'lchamli RGB da va CMYK sistemada skanerlay oladi.

Ever Smart skanerlarining boshqarish dasturi skanerlash jarayonini ta'minlashni professional darajada boshqarish imkonini beradi.

Ever Smart skanerlar bilan birga tasvirni retushlovchi o'ziga xos dasturiy mahsulot — Final Touch yetkazib beriladi.

Supreme va Select modeli yangi 16-bitli skanerlash uchun Creo OXYgen yangi dasturlar bilan komplektlanadi.

da oshiruvchi bir necha qo'shimcha qurilmalar ko'rsatilgan emas. ShKning asosiy tashkil etuvchilari quyidagi qurilmalardir:



2.1-rasm. IBM PC kompyuterining umumiy ko'rinishi.

Sistemalar bloki — mazkur blok tezkor xotira, riyoziy va mantiqiy amallarni bajaruvchi elektron sxemalardan iborat.

Magnit diskleri — odatda bu blok sistema blokiga o'rnatilgan ishlovchi blok bo'lib, egiluvchan magnitli disklardagi (disk yurituvchi) axborotni o'qish va axborotni saqlash ishlarini bajaradi.

Qattiq disklar bilan — «vinchester» deb ham nomlanuvchi bu blok ishlovchi blok sistema blokiga o'rnatilgan bo'lib, qattiq magnitli disklardagi axborotni o'qish va axborotni yozish ishlarini bajaradi.

Display — matn va tasvir ko'rinishidagi axborotlarni ekranga chiqarish qurilmasi.

Klaviatura — kompyuterga buyruq va axborotlarni kiritish qurilmasi.

Printer — matn va tasvir ko'rinishidagi axborotlarni bosmaga chiqarish qurilmasi.

IBM PC kompyuterining sistema bloki quyidagilardan iborat:

Asosiy mikroprotsessor — kompyuter ishini boshqaradi va barcha hisoblashlarni bajaradi.

Tezkor xotira — kompyuter tomonidan bajariladigan dasturlar, va ana shu dasturlar uchun zarur bo'lgan axborotlar tezkor xotiraga yuklanadi. Tezkor xotira hajmi odatda 640 Kbaytga teng, ammo uning hajmini oshirish imkoniyatlari ham mavjud.

Elektron sxemalar — kompyuterning turli qurilmalari ishini (kontrollerlar) boshqarib turadi.

Kiritish — chiqarish — bu portlar yordamida protsessor tashqi portlari qurilmalari bilan axborot almashadi. Maxsus portlar ichki qurilmalargagina xizmat qiladi. Umumiy portlarga esa sichqoncha, printer, tarmoq adapteri va turli boshqa qo'shimcha qurilmalarni ulash mumkin.

Qattiq magnitli disklarda kompyuter bilan ishlash uchun zarur bo'lgan barcha dasturlar, masalan, operatsion sistema, matn muharrirlari, turli dasturlash tillari fayllari va h.k. saqlanadi. Vinchester kompyuter bilan ishlashda katta qulayliklar yaratadi. Hajmi jihatidan juda katta bo'lgan dasturlarni vinchestersiz ishga tushirish ba'zan mumkin ham emas.

Foydalanuvchi uchun vinchesterlar avvalo bir-biridan hajmlari bilangina farq qiladi. Bugungi kunda 10 Mbaytdan tortib bir necha yuz Mbaytgacha bo'lgan vinchesterli kompyuterlar mavjud.

Monitor (display) matn va tasvir ko'rinishdagi axborotlarni ekranga chiqarish qurilmasidir. Monoxrom va rangli monitorlar mavjud bo'lib, ular matn yoki grafika holatlaridan birida ishlaydilar.

Klaviatura tugmalari soniga ko'ra standart (84) va kengaytirilgan (101) klaviaturalari mavjuddir. Bundan tashqari, klaviaturalar lotin harflarining joylashuviga ko'ra ham farqlanadi: amerika va angliya standarti — QWERTY, fransuz standarti — AZERTY.

Klaviaturada lotin alifbosi harflari ingliz yozuv mashinasidagi kabi tartibda, kirill alifbosi harflari rus yozuv mashinasidagi kabi tartibda joylashgan. O',Q,G',H harflari uchun esa klaviaturada maxsus tugmalar mavjud emas, ya'ni bu harflarni o'zbek yozuv mashinasidagi kabi tartibda joylashtirib bo'lmaydi.

Klaviaturada raqam, turli belgi va harfli tugmalardan tashqari maxsus xizmatchi tugmalar ham mavjud:

1. [Return] yoki [Enter] tugmalari satrni tugallash va kiritish uchun xizmat qiladi. Masalan, kiritish satrida MS DOS buyrug'i yozilgach, mazkur tugmalardan birini bosish kerak.

2. [Del] — kursor o'rnida turgan belgini o'chirish tugmasi.

3. [Ins] – o‘chirib yozish yoki surib yozish holatlariga o‘tkazish tugmasi. Birinchi holatda tahrirlanayotgan harf o‘chirilib, uning o‘rnini kiritilgan harf egallaydi. Ikkinchi holatda esa satrdagi kursordan boshlab undagi barcha harflar o‘ngga bittaga surilib, tahrirlanayotgan harfning avvalgi o‘rnini kiritilgan harf egallaydi.

4. [BS] (Back Space) – kursordan chapda turgan belgini o‘chirish tugmasi.

5. → ↓ ↓ → kursorni mos tomonga harakatlantiruvchi tugmalar.

6. [Home], [End] – kursorni mos ravishda satr boshiga va satr so‘ngiga keltiruvchi tugmalar.

7. [PgUp], [PgDn] – kursorni mos ravishda satr sahifa boshiga va sahifa so‘ngiga keltiruvchi tugmalar.

8. [Num Lock] – qo‘shimcha klaviaturani ishga tushirish tugmasi. Raqamlarni qo‘shimcha klaviaturadan kiritish uchun ishlatiladi.

9. [Esc] – voz kechish tugmasi, qandaydir amallarning bajarilishidan voz kechish uchun, ba’zi dasturlardan chiqish uchun ishlatiladi.

10. [F1]–[F2] – maxsus amallarni bajarish tugmalari. Bu tugmalarning vazifalari bajariluvchi dasturda belgilanadi.

11. [Ctrl] va [Alt] – bu tugmalar ham [Shift] tugmasi kabi o‘zga tugmalarning vazifasini o‘zgartirish uchun ishlatiladi. Masalan, [Alt] va [X] tugmalarining baravar bosilishi aksariyat dasturlar uchun dasturdan chiqishni anglatadi. [Alt] tugmasini bosib turib, biror kodi kiritilsa, ekranda ana shu belgi namoyon bo‘ladi.

2.3. Kompyuter sindromi

Kompyuter oldida muntazam o‘tirgan odamlarning ko‘pchiligi ko‘zoynak taqishini hech kuzatganmisiz? Siz har kuni ishlaydigan bu kichik quticha sizning ko‘zingizga salbiy ta’sir ko‘rsatadiki, siz buni sezmaydiz. Kompyuter oldida ko‘p o‘tirgan odamlar ko‘z oldi tumanligi, jismlarning ikkita ko‘rinishi, ko‘z charchashi, ko‘z qizarishi, ko‘z yoshlanishi yoki qurib qolishi va hokazolardan arz qiladilar. Bu hollarning umumiy nomi «Kompyuter sindromi» deb ataladi. Bu sindromlarning sababi monitordan tarqalayotgan nur oqimi va elektromagnit maydoni edi.

Hozirgi olimlarning fikricha esa bu sindromlarning sababi insonning million yillar davomida rivojlanib kelayotgan ko‘zi bu

displayga moslashmaganidadir. Displaydagi tasvir tabiatdagi tasvirlardan farq qilib bu tasvirlar yaltiraydi, diskret nuqtalardan iborat, lipillaydi va aniq chegaraga ega emasdir. Mana shular ko'zni charchatadi va ko'p tarqalgan kompyuter sindromini keltirib chiqaradi. Insonning markaziy asab tizimi ko'z orqali kelayotgan axborotlarni qabul qiladi, ammo hammasini ham idrok etolmaydi. Mana shu idrok etilmagan axborot odamni charchatadi. Bu charchashlarning oldini olish uchun vaqti-vaqti bilan dam olish kerak. Aksincha, dam olmaganlar bu sindromlarni boshidan kechiradilar. Bu sindromni hamma ishlovchilar boshidan kechiradilar, faqat ba'zilar oldin, ba'zilar kechroq bu holga tushadilar. Bu sindromlarni yengillashtirish uchun monitorga qo'yiladigan ba'zi talablar mavjud:

- ekran rangdorligi 256 rangdan kam bo'lmashligi yoki true color rejimida bo'lishi kerak;

- ruxsat etilgan nuqtalar soni 800 x 600 bo'lishi kerak;

- uy sharoitida monitoring o'lchami 14 dyuym bo'lishi kerak;

- regeneratsiya chastotasi 85 Gc dan kam bo'lmashligi kerak.

Matn bilan ishlashda shrift qora, fon esa oq bo'lishi kerak, chunki bu axborotni miya tez qabul qiladi.

O'z-o'zidan savol tug'iladi: nega kompyuterda ishlovchilar bosh og'rig'i, tez charchash, yurak-qon tomir kasalligi, asab va oshqozon-ichak kasalliklaridan ham arz qiladilar? Ishonish qiyin, ammo mana shu muammolarning sababi ham ko'zdir. Ko'zning monitorga ko'p qadalishi mana shu charchash va har xil kasalliklarni keltirib chiqaradi.

Bu sindromlar qanday bo'lishidan qat'i nazar, yoshi katta insonlarda o'z vaqti bilan o'tib ketadi. Lekin yoshlarda buning aksi. Bolaning kompyuterda o'tirishi juda salbiy oqibatlariga olib keladi. Insonning ko'zi o'smirlik va balog'at yoshida rivojlanishi davom etayotgan bo'ladi. Mana shu paytda ularning monitor oldida o'tirishi uzoqni ko'ra olmaslik va boshqa kasallikka sabab bo'ladi. Bu sindromlardan faqat kompyuterchilar emas, balki ko'z bilan bog'liq ishchilar ham ozor chekadilar. Bular o'quvchilar, talabalar, mikroskopda ishlovchilar, elektronchilar, qimmatbaho toshlarni ajratuvchi va boshqalardir. Vrachlarning fikricha, kompyuterda ishlovchilar har yarim soatda dam olishlari kerak. Bu vaqtda ayrim ko'z mashqlarini bajarish lozim.

Lekin erinchoqlik bunga yo'l qo'ymaydi. Kompyuter oldida vaqt juda tez o'tadi, shuning uchun dam olish u yoqda tursin, hatto ovqatlanishni ham unutib qo'yamiz.

Agar siz bu muammolarni hal qilmoqchi bo'lsangiz, siz uchun «Anti-EyeStrain» dasturini maslahat beramiz. Bu dastur ko'z charchashining oldini olish uchun maxsus tayyorlangandir. Bu dastur ko'z charchashidan oldin sizni dam olish to'g'risida ogohlantirib oddiy mashqlarni taklif qiladi. Bu dastur fon rejimida ishlab dam olish kerak bo'lganda qizil tusga kirib ogohlantiradi. Siz xohlagan vaqt oralig'ini qo'yishingiz mumkin. Shuning uchun bu dastur bilan ishlab ko'ring, ko'zingiz bundan mamnun bo'ladi.

Nazorat savollari

1. Bosishgacha bo'lgan jarayonda kompyuterlarni o'rni?
2. Kompyuterlarning texnik tasnifi?
3. Kompyuterda ishlash prinsipi?
4. Kompyuterlarni asosiy afzalliklari va kamchiliklari?
5. Kompyuterlarning asosiy turlari?

III bob

FOTONABOR AVTOMATLAR

Zamonaviy matbaachilikda ishlab chiqarishning eng muhim bosqichlaridan — fotoqoliplarni tayyorlash jarayoni hisoblanadi. Uning sifatiga to'liq tarzda mahsulotning sifati bog'liqdir. Bugungi kunda fotonabor avtomatisiz (FA) yuqori sifatli rangli matbaa mahsulotini ishlab chiqarish mumkin emas.

3.1. Umumiy ma'lumot

Computer-to-film texnologiyasining bosishgacha bo'lgan jarayonida matnning fototasvirini va rastrlangan rasmlarni olish uchun fotonabor avtomatlar qo'llaniladi. Zamonaviy FA larida tasvirni shakllantirish uchun yorug'lik nuri bilan skanerlash ishlatiladi. Yorug'lik dog'ining belgilangan joydan vertikal yoki gorizontal chiziq bo'ylab harakat qilishi va asta-sekin tasvir yozilishi kerak bo'lgan fotomaterialning butun yuzasini bosib o'tishi skanerlash prinsipi hisoblanadi. Bunda yorug'lik signali intensivligini model-lashtirishda fotomaterial eksponirlanadi. Bu elementlar orqali shriftli belgilarning tasviri to'liq shakllanadi.

Hozirgi kunda FA da yorug'likning manbasi sifatida lazer qo'llanilmoqda. FA da lazerning yorug'lik manbai tasvirni yozishda muhim ahamiyatga ega. Nurlanishning monoxromatikligi, lazer nurining yuqori intensivligi, nurni tez va yengil boshqarish uning asosiy belgilari hisoblanadi.

Nurlanishning yuqori intensivligi tasvirni yuqori tezlikda yozish imkonini beradi.

Nuqtali-rastr satrlar ko'rinishidagi tasvirni yozayotgan lazer nurini boshqarish uchun bir yoki bir necha aks ettiradigan qirralari mavjud va aylanuvchi oynali deflektorlar orqali amalga oshiriladi. Zamonaviy FA lar oynali deflektorlarining aylanish chastotasi bir daqiqada 40000 dan ortiq. Shunda deflektorlar bir marta aylangan-da tasvirning bir yoki bir necha nuqtali-rastr satrlar yozilib qoladi.

FA larda *gazli* va *yarim o'tkazgichli lazerlar* — lazer diodlar qo'llaniladi. *Gazli* lazerlar sifatida — 488 va 633 nm aydarli qisqa to'liin uzunligiga ega bo'lgan argon ionli (Ar+) va geliy-neonli (He-Ne) qo'llaniladi. Zamonaviy fotonabor avtomatlarda *yarim o'tkazgichli lazerlardan* infraqizil va qizil nurlanishli (to'liin uzunligi 780 va 670—680 nm) lazer diodlar qo'llaniladi. To'liin uzunligi qanchalik qisqa bo'lsa, fotomateriallarga yozilayotgan nuqta aniq tasvirlanadi.

FA ning so'nggi modellari ayrim hollarni hisobga olmaganda ko'z ko'radigan (670—680 nm) qizil nur spektorida ishlovchi manba sifatida lazer diodidan foydalaniladi. Lazer diodning afzalligi shundan iboratki, u harorat o'zgarishlariga chidamli, shu bilan birga kichik o'lchamga ega bo'lib eskirib qolishga moyil bo'lmaydi va deyarli kam energiya isrof qiladi. Ushbu manbaning keng qo'llanilishi ikki sabab bilan izohlanadi. *Birinchidan*, ushbu manbaga mos keluvchi yangi plyonka ishlab chiqarildi. Plyonkaning yangi turi va qizil man-badan foydalanish endi nurning geliy-neonli manbasi darajasidagi yozib olish sifatini berayapti. *Ikkinchidan*, geliy-neonli va nurning argonli manbasidan ko'ra lazerli diod arzonidir.

780 nm nurning infraqizil spektrida ishlovchi lazer diod o'rnatilgan FA modellari mavjud va ishlab chiqarilmoqda. Lekin uzun to'liinqa ega bo'lganligi sababli nurning ko'z ko'radigan qizil spektrida ishlovchi lazer diodga yozib olish sifatidan pastroq.

3.2. Fotonabor avtomatlarning tuzilish sxemasi


FA larda fotomaterialning joylashish xarakteriga, harakatlan-tirish va tasvirni yozib berish jihatidan bir necha tuzilish sxemalariga bo'linadi. Hozirgi kunda lazerli FA lar prinsip jihatidan uchta tuzilish sxemasiga ega:

1. Fotomaterial tekislikda joylashib tasvirni bo'yiga qarab yozib (uzluksiz yoki diskretli) harakatlanadi.


Tasvirning eniga yozilishi uzluksiz aylanadigan ko'p qirrali yoxud vaqti-vaqti bilan tebranadigan yon qirrali oynali deflektor orqali amalga oshiriladi. Ushbu sxemadagi FA lari rolikli yoki «kapstan» (ingl. - val) turli avtomatlar deb ataladi (3.1-rasm).

2. Fotomaterial mahkamlangan baraban yoki yarim baraban-ning ichki yuzasida joylashadi, tasvirning yozilishi yagona aks ettiruvchi qirra (oyna, to'g'ri burchakli prizma yoki pentaprizma) bilan doim aylanadigan deflektor va eni tomoniga optik sistema va

deflektorning baraban o'qi bo'ylab aylanish hisobiga amalga oshiriladi. Yozib olingandan so'ng fotomaterial o'tkazuvchi kassetadan boshiga qaytarilib qabul, stoliga topshiriladi. Ushbu sxemadagi fotonabor avtomati «ichki baraban»li avtomatlar turiga kiradi (3.2-rasm).




3.1-rasm. «Kapstan» turli fotonabor avtomatlar.



3.2-rasm. «Ichki baraban»li fotonabor avtomatlar.

3. Fotomaterial (varaqli) uzluksiz aylanuvchi barabanning tashqi yuzasiga joylashadi, tasvirning bo'yiga qarab yozilishi baraban aylanishi hisobiga, eniga qarab yozilishi esa optik sistemaning hosil qiluvchi barabani bo'ylab harakatlanishi orqali amalga oshiriladi. Bunday fotonabor avtomatlar «tashqi baraban»li FA lar turiga kiradi (3.3-rasm).



3.3-rasm. «Tashqi baraban»li fotonabor avtomatlar.

«Kapstan» turidagi FA ning asosiy xususiyati tuzilishining soddaligi, yetarli darajada ishonchli va past narxi bilan ajralib turadi. FA larning boshqa ajralib turadigan xususiyatlariga eni katta bo'lgan plyonkaga yozib olish imkoniyatini ham aytib o'tish o'rinli. Maksimal uzunlik faqatgina rastr protsessori va qabul qiluvchi kasseta sig'imiga bog'liq. Bu avtomatlarni kichik o'lchamligi afzalligini e'tirof etish o'rinli.

«Kapstan» turidagi FA ning kamchiliklari optik tizimining qurilmasi, serqirra deflektorlarning aylanish jarayoni va fotomaterial tortish mexanizmining ishi bilan shartlangan.

«Kapstan» turidagi fotonabor uskunalarini mahsulot chiqarish uchun yuqori liniatura (152–200 Lpi) talab qilmaydigan, sodda va iqtisodiy jihatdan arzon, unumdorligi o'rtacha texnologiya deyish mumkin.

Hozirda «ichki baraban» prinsipida ishlaydigan fotonabor uskunolari ko'proq tarqalgan. Uskunalar quyidagicha ishlaydi: kassadan plyonka barabanning ichki yuzasiga yetib boradi. U yerda plyonka vakuum sistemasi yordamida yoki mexanik siqish valiklari

yordamida mahkamlanadi. Sifat jihatdan qaraganda vakuum sistemasi yuqshiroq. U fotomaterialni barabanning ichki yuzasiga to'liq yetishini taminlaydi. O'lchami 52 sm li Heidelberg Prepress Quasar fotonabor uskunolari mexanik fiksatsiya sistemasiga ega. 72 sm o'lchamli Herkules Pro vakuumli sistemaga, 102 sm o'lchamli Signasetter uskunolari mexanik fiksatsiya sistemasiga ega.

Fotomaterial «ichki baraban»ga o'rnatilgandan va fiksatsiya qilinganidan keyin, baraban o'qidagi karetkaga joylashgan lazer va optik sistema shu o'q bo'yicha siljiydi. Bundan lazer nuri aylanuvchi prizma yordamida harakatlanish o'qidan siljiydi. Ekspozitsionlangandan keyin fiksatsiya bo'shatiladi va fotomaterial qabul qiluvchi kassetaga tushadi.

Yorug'lik manbaining o'q bo'ylab harakatlanishi turli texnik yo'llar bilan amalga oshirilishi mumkin.

Tasvirning yozilishida shu narsa ahamiyatga egaki, nur silindrning markazida joylashgan va skanerlovchi prizma hamda fotomaterial orasida masofa doimiy o'zgarmasdir, shuning uchun nur fotomaterialga 90° ostida tushadi.

«Ichki baraban»li fotonabor uskunolari tasvirni 305 lpi rastr bilan yozish imkonini beradi.

«Tashqi baraban»li fotonabor uskunalarida fotoplyonka barabanning tashqi yuzasiga emulsiya tarafi yuqoriga qilib o'rnatiladi.

Tasvirni yozish jarayonida baraban aylanadi, fotoplyonka baraban yuzasiga nisbatan normal joylashgan lazer nuri yordamida ekspozitsionlanadi. Lazer nuri baraban o'qiga parallel o'q bo'ylab harakatlanadi.

«Tashqi baraban» turidagi uskunalarining zamonaviylari ko'p nurli yozish imkoniga ega, yani bir vaqtning o'zida bir necha rastrnuqtali satr yozilishi mumkin, bunda bitta lazer nuri maxsus optik sistema yoki akustooptik modulyator yordamida bir necha nurga ajratiladi. Bunday uskunalar yuqori unumdorlikka ega.

«Tashqi baraban»li fotonabor uskunasi uzunligi baraban aylanasi uzunligiga teng fotoplyonkaga tasvir yozadi. Plyonka barabandagi vakuum sistemasi bilan fiksatsiya qilinadi. Bu jarayon uzoq vaqtga cho'ziladi. Plyonkani kassetadan olish, uni kerakli uzunlikda kesish, baraban ustiga o'rnatish, vakuum sistemasini ishga tushirib fiksatsiya qilish kerak. Shundan keyingina ekspozitsionlashni boshlash mumkin. Plyonkani barabandan ajratib olish ham ma'lum vaqt talab qiladi.

«Tashqi baraban» sodda tuyulgani bilan yetarlicha murakkab va quyidagi sabablarga ko'ra qimmatdir:

A2 o'lchamli (420x588 mm) fotoplyonkani joylashtirish uchun baraban diametri 135 mm dan kam bo'lmazligi kerak. Aslida esa diametri kattaroq. Vakuum sistemasini baraban aylanayotganda ishga tushirish kerak.

Tasvir yozishning yetarli tezligiga erishish uchun barabanni mutanosib ravishda tez aylantirish kerak. Og'ir barabanni aylantirish va o'zgarmas yuqori tezlikni saqlab turish oson emas. Kuchli dvigatel bo'lishi kerak, podshipniklarga katta talab qo'yiladi va barabanning silkinishini oldini olish kerak.

Baraban aylanayotganda plyonka uning sirtidan ko'chib chiqishga intiladi, uni joyida ushlab turish uchun vakuum kerak.

Tasvir hosil qilinishidan oldin plyonka kesilgani uchun uni maxsus kassetalarda saqlash qo'shimcha noqulayliklar keltirib chiqaradi.

«Tashqi baraban»li fotonabor uskunalarida barabanning aylanish chastotasini kamaytirib, yuqorida qayd qilingan muammolardan qutilish mumkin, lekin lazer nurlarini boshqarish qiyinlashadi. Avtomatlarning birgina afzalligi — bu yorug'lik manbai fotomaterialga 90 gradusda va juda yaqin joylashishidir.

«Tashqi baraban»li fotonabor uskunolari qimmatligi va ko'pgina kamchiliklari tufayli hozir kam uchraydi, lekin ular tasvirni 5000 dpi da berish imkoniyatiga ega.


3.3. Lazerli fotonabor avtomatlarning strukturasi va ishlash prinsipi

Lazerli fotonabor avtomatlar boshqarish va skanerlash qurilmasidan iborat (3.4-rasm).

Boshqarish qurilmasi tasvirdagi ma'lumotni matritsa shaklida kiritish va boshqarish signallarini hosil qilish uchun xizmat qiladi. Bu signallar lazer nurining modulyatsiyasi, fotomaterialning harakatlanishini boshqaradi.

Boshqarish qurilmasi RIP interfeys, asosiy kontroller, xotira va boshqarish bloklaridan iborat.

Lazerli skanerlash qurilmasi (LSU) lazer, modulyator, teleskop, deflektor, obyektiv, skanerlash jarayonini sinxronlashtirish sistemasi va lazer nurini korreksiyalashdan iborat.



3.4-rasm. Lazerli fotonabor avtomatning struktura sxemasi.

Fotonabor avtomatlarida yuqori sifatli tasvir olishda yorug'lik manbai sifatida lazer qo'llaniladi.

Lazer nurining intensivligini boshqarish uchun modulyator ishlatiladi. Lazerli fotonabor avtomatlarida elektrooptik (EOM) va akustooptik (AOM) modulyatorlar qo'llaniladi.

Qo'zg'almas modullashtirilgan nurni rastrga aylantirish uchun deflektorlar sizmat qiladi.

Skanerlash qurilmasida akustooptik va optik-mexanik deflektorlar qo'zg'aladigan yoki aylanadigan oynalar ishlatiladi.

Lazerli skanerlash qurilmasining ishlash qobiliyati yuqori bo'lishi uchun obyektiv ishlatiladi.

Lazer nurining quvvatini o'zgartirishda neytral svetofiltrlar qo'llaniladi.

Neytral svetofiltrlar — bu yarimshaffof optik sistema bo'lib, tushayotgan nurni to'liq yutib yuboradi.

Har xil liniaturali rastrda tasvirni yozishda har xil diametrdagi mikromuqta olish uchun diafragmalar qo'llaniladi.

3.4. Fotonabor avtomatlarning texnik xarakteristikalar

Fotonabor avtomatlarning asosiy texnik xarakteristikalar: yozish o'lchami, imkonli qobiliyat va nuqtaning o'lchami, rastr-liniaturalari, takrorlanish, yozish tezligi.

O'lcham — maksimal o'lcham va eskponirlash o'lchami farqlanadi. Fotonabor avtomatining bu parametri bosish mashinasining o'lchami bilan mos bo'lishi kerak, aks holda fotoqoliplarni qo'lda

montaj qilishga to'g'ri keladi, bu esa rangli mahsulot sifatining pasayishiga olib keladi.

Imkonli qobiliyat va nuqta o'lchami. Imkonli qobiliyat deganda uzunlik birligida (odatda dyuymda) hosil qilinadigan nuqtalar soni tushuniladi. Quyidagi imkonli qobiliyatlar ko'proq uchrab turadi: 1270, 1693, 2032, 2540, 3387, 4064, 5080 dpi. Imkonli qobiliyat skanerlovchi va optik sistema tuzilishiga bog'liq.

Agar nuqta diametri imkonli qobiliyat har gal o'zgarganda o'zgarib tursa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunda nuqta diametri imkonli qobiliyatga nisbatan teskari mutanosiblikda o'zgarishi kerak. Fotonabor uskuna yaratuvchilari shunga intilishadi.

Rastr liniaturasi — bu parametr ko'pincha fotonabor uskunani emas, balki rastr protsessorini xarakterlaydi. Yo'l qo'yiladigan liniatura diapazoni imkonli qobiliyat bilan bog'liq (agar imkonli qobiliyat r dpi bo'lsa, rastr liniaturasi $Lin=r/16$ Lpi).

Amalda bosma mahsulot xarakteriga qarab liniaturaga talab qo'yiladi. Jurnal mahsuloti uchun liniatura odatda 133–150 lpi ni, kamroq hollarda, 175 lpi ni tashkil qiladi, reklama mahsuloti uchun 200 lpi gacha chiqishi mumkin.


Takrorlanish — rangli mahsulot uchun fotonabor uskunasi yordamida fotoqolip tayyorlashda to'rtta rang (havorang, pushti, sariq, qora) alohida ranglarga ajratilgan va rastrlangan plyonkalar tayyorlanadi. Bosish jarayonida har xil rangli rastr nuqtalarining yig'indisi tasvirni aniq hosil qilishi kerak. Agar o'zgarish yuz bersa tasvir shakli va sifat yo'qotiladi.

Takrorlanish ketma-ket chiqarilgan fotoqoliplarda nuqtalarning o'lchami bo'yicha ma'lum miqdorda maksimal darajada mos tushmasligi bilan xarakterlanadi. Zamonaviy fotonabor uskunalar bu parametr bo'yicha yaxshi ko'rsatgichlarga ega. Masalan, barabanli fotonabor uskunalarida bu miqdor standart 5 mkm ni, «kapstan» turidagi fotonabor uskunalarida esa 25–40 mkm ni tashkil etadi.

Yozish tezligi — barcha zamonaviy fotonabor uskunalar rastrlangan tasvirni yuqori tezlikda yozish imkoniyatiga ega, u esa konstruksiya (deflektorning aylanish chastotasiga, fotomaterial yoki yozish kallagining ishlash tezligiga) va foydalaniladigan imkonli qobiliyatga bog'liq. Yozish tezligi fotomaterialning maksimal kengligi bo'yicha bir daqiqada necha santimetrni eksponirlash qobiliyati bilan belgilanadi.

LinotypeHell firmasi Linotronic seriyasidagi yangi fotonabor uskunalarini ishlab chiqdi. Unga quyidagilar kiradi: «kapstan» turi-

dagi uskunalar Linotronic 260, 300, 330, 500, 530, 560; «ichki barabandli Linotronic 630, «tashqi baraban»li Linotronic 830, 930 (1.5-mm).



1.5-mm. Linotronic 830, 930 fotonabor avtomatlarning skanerlash qurilmasining sxemasi.

Bu avtomatlarda rastr protsessori (1) tasvirni raqamlashtirishga tayyorlaydi, bu ma'lumot saqlab qolish qurilma (2) ga jo'natiladi va u vakuum yordamida aylanadigan barabanga mustahkamlangan fotomaterial (9) ga yozilgunga qadar saqlanib turadi.

Quvvati 10 mVtli argon-ion lazer nuri 4 yarim shaffof oynalar sistemasi (5) orqali 8 ta nurga bo'linadi. Har bitta nur har xil akustooptik modulyator (6) dan o'tadi, chiqishda esa svetovod (7) ga tushadi. Kabelning ikkinchi uchi yozish fotogolovka (8) ga ulangan. Tasvir nuqta ko'rinishida obyektiv orqali fotoplyonka (9) yuzasiga tushiriladi. Elektron boshqarish qurilma (3) dagi signallar modulyator (6) ni boshqaradi.

Linotronic 260 da yorug'lik manbai sifatida infraqizil lazerli diod (780 nm) ishlatiladi. Fotonabor uskunasini 305 mm o'lchamli tasvirni 390 mm o'lchamli fotomaterialga maksimal 2540 dpi

imkonli qobiliyat bilan yozish imkoniga ega. Bunda yozish tezligi 10,2 sm/daq. ni tashkil etadi.


Sifatli rastrlı tasvir olish uchun fotonabor uskunasi fotomaterial xarakteriga qarab va texnologik jarayon o'tkazish sharoitiga qarab tanlanadi.

Sifatli rastrlı tasvir olishning shartlaridan yana biri shuki, lazer nurlarining intensivligini to'g'ri tanlash kerak, bu esa o'z navbatida fotomaterialni yetarlicha qorayishini (optik zichligi) ta'minlashi kerak. Yorug'likning optimal kuchini turli fotomateriallar uchun aniqlab olish kerak. Yorug'likning optimal kuchini avtomatik ravishda aniqlash uchun test-dasturlardan foydalanish mumkin.

3.5. Quruq plyonka va poliyestr bosma qolipiga yozish uchun maxsus fotonabor avtomatlar

Oxirgi paytlarda an'anaviy kimyoviy ishlov talab qilmaydigan quruq plyonkaga yozadigan yangi texnologiya va uskunalar ishlatilayapti. Quruq plyonkalarga har xil texnologik yozish sxemalari 3.6-rasmda ko'rsatilgan.

Birinchı usulda (3.6.a-rasm) ishlatiladigan plyonka asosiga maxsus tartıbdagi bo'yovchi surtilgan. Eksponirlash qurilmada yuqori quvvatli lazer plyonka yuzasidagi bo'yovchini quritadi. Agar skanerlash negativ rejimida bajarılsa, unda tasvir bor joylari, pozitiv rejimida — tasvirsiz qismlari tozalanadi. Eksponirlashdan so'ng plyonkaga ishlov berilmasa ham bosma qolip tayyorlashga hozir.




3.6-rasm. Quruq plyonkalarga eksponirlash jarayoni sxemalari.

Ikkinchi usulda (3.6.b-rasm) ikkita list — tashuvchi va asos orasida yupqa ko'mir zarrachali qatlami surtilgan. Yuqori quvvat-

dagi lazer ta'sirida bu zarrachalar tashuvchidan asosga o'tadi. Keyin bu ikkita list bir-biridan ajratiladi.

Uchinchi usulda (3.6.d-rasm) tasvir elektrofotoqrafik rejimida hosil bo'ladi. Bunda plyonka uchta qatlam: «maylar» asosi, o'tkazuvchi oraliq va termoplastik qatlamlardan iborat. Termoplastikda selen mikrozarrachalari bor. Selen zarrachalari to fotonabor avtomati lazeri plyonkaga ishlov berilmaguncha statistik zaryadni ushlab turadi. Plyonkaga nur tushirilganidan keyin 100 gradus haroratda qizdiriladi, termoplastik yumshaydi, selen zarrachalari o'tkazuvchi qatlamga qarab siljiydi. Plyonkaning lazer tushmagan joylarida selen zarrachalari siljimaydi, shuning uchun bu joylar qizdirishdan so'ng ham shaffof bo'ladi.

Quruq plyonkalarga yozish uchun fotonabor avtomatning sxemasi 3.7-rasmda ko'rsatilgan. Infraqizil nurga sezuvchi rulon material 2 kasseta (1) dan baraban (3) ning ichki yuzasiga joylashadi. Yo'naltiruvchi (8) bo'ylab infraqizil lazer va optik sistema (5) dagi prizma harakatlanadi. Lazer (4) materialni eksponirlaydi. Ekspozitsionlangan materialni kesish uchun disk pichog'i (7) ishlatiladi.



3.7-rasm. Quruq plyonkalarga yozish uchun fotonabor avtomatning sxemasi:

a — fotonabor avtomat; b — ajratuvchi/laminator.


Material poliestr asosdan, ko'mir kukunli qatlamdan, lazerga sezuvchi qatlamdan va shaffof himoya plyonkadan iborat. Ekspozitsionlashdan so'ng lazer bilan ishlangan joylardagi ko'mir kukuni himoya plyonkaga yopishadi. Ekspozitsionlangan joylardagi kukun asosda qolib ketadi.

Fotonabor avtomat komplekti eksponirlash avtomat (3.7.a-rasm) va ajratuvchi/laminatordan iborat (3.7.b-rasm). Bu kompleks on-line rejimida ishlaydigan fotonabor avtomat va ishlov berish mashinalar singari ishlaydi. Eksponirlashdan so'ng ajratuvchi/laminatorda ajratuvchi (14) materialni ikkiga ajratadi. Kukunli qism himoya plyonka bilan qoplanadi va (12) da presslanadi (10) rulondan (11) rulonga o'raladi.

Tayyor fotoqolip qabul qilish (13) bunkeriga, ajratilgan materialning ikkinchi qismi (9) bunkerida qoladi. Valik sistema (6) materialni harakatlantiradi.

Infraqizil lazer ishlatilgani uchun maxsus xona talab qilinmaydi.

Zamonaviy fotonabor avtomatlari poliestr bosma qolipiga ham yozishi mumkin (3.8-rasm). Poliestr bosma qolipdan 20 minggacha liniaturasi 175 lpi bo'lgan nusxalar olish mumkin.



3.8-rasm. Poliestr bosma qolip strukturasi:

1 – shaffof qatlam; 2 – kumush galogenidi; 3 – ishlov beruvchi xususiyatga ega asos qatlami; 4 – poliestr yoki qog'ozli qatlam; 5 – yupqa qatlam.

Bu texnologiyada rulon poliestr materialida tasvir kumushni diffuziya yordamida o'tkazish bilan hosil bo'ladi. Eksponirlash paytida kumush galogenidi kuyib ketadi, kimyoviy ishlov berishda kuyib ketmagan kumush esa gidrofob xususiyatga, ya'ni bo'yoqni qabul qiladigan, tepadagi qatlamga o'tib boradi. Bu texnologik jarayon negativ rejimida eksponirlashni talab qiladi.

Nazorat savollari

1. Optik zichlik nima?
2. Imkonli qobiliyat nima va qanday xarakterlanadi?
3. Rastrli protsessor RIPning asosiy vazifasi?
4. Lazerli fotonabor avtomatning asosiy turlari?
5. Fotonabor avtomatlarida qanday lazer turlari qo'llaniladi?
6. Lazerli fotonabor avtomatlarning texnik tasnifi?
7. Lazer diodlarni gazli lazerlarga nisbatan afzalligi va kamchiliklari?
8. Fotonabor avtomatda lazer nuri quvvatini qanday o'zgartirish mumkin?

IV bob

FOTOQOLIPLARGA ISHLOV BERISH UCHUN ISHLATILADIGAN USKUNALAR

Fotonabor avtomatlarda yoki fotoreproduksion fotoapparatda eksponirlangan fotomaterialdagi yashirin tasvirni ochish uchun kimyoviy ishlov beriladi. Fotokimyoviy ishlov berish protsessori yoki avtomatlarida bajariladi.


4.1. Umumiy ma'lumot

Plyonkalarga ishlov beruvchi protsessorlarning yasalişidagi asosiy prinsip — bu mashina o'zida butun texnologik siklni bir-lashtirishidan iboratdir. Fotoplyonkaga ishlov berishning har bir bosqichi uchun alohida seksiyalar ko'zda tutilgan. Jarayonning optimal shartlarini boshqarish oldindan ishlab chiqilgan dastur bilan elektron ravishda amalga oshiriladi. Plyonkalarni yuvish uchun ishlatiladigan protsessorlarning tuzilishini va ishlash prin-siplarini Heidelberg firmasining Multiline oilasiga kiruvchi protses-sor misolida batafsil ko'rib chiqamiz (4.1-rasm).

Prosessori asosiy 4 ta seksiyadan (4.1-rasm) tashkil topgan — ochish (7), ya'ni tasvirni hosil qilish, fiksatsiya qilish (8), yuvish (10) va quritish (11). Tasvir tushirilgan plyonkani to'liq ochiltirish, yuvish, quritish hamda foydalanishga tayyor holga keltirish jara-yonida har bir seksiya muayyan vazifasini bajaradi.

Protsessorni boshqarish maxsus boshqaruv paneli (5) orqali amal-ga oshiriladi. Plyonka (3) protsessorga maxsus stol (4) orqali ham berilishi mumkin. Bunday holda protsessor qorong'i xonaga joy-lashtirilishi lozim. Agar protsessor plyonkali kassetani yorug'likdan himoya qiluvchi maxsus moslamaga — boks-ga ega bo'lsa, unda mazkur protsessor oddiy yorug' xonalarda ham bimalol ishlatilishi mumkin. Agar protsessor kunduzgi yorug'likka mo'ljallangan kas-seta (2) bilan jihozlangan bo'lsa, unda plyonka bilan ham, rulonli

plyonkalar (1) bilan ham ishlash imkoniyati paydo bo'ladi. Shuningdek, protsessor kunduzgi yorug'likni kuchaytiruvchi maxsus moslamaga (6) ham ega, unda qayta yuvish moslamasi (9) ham mavjud, bu esa uni qorong'i bo'lmagan xonada ham «devor orqali» holatda ishlatish imkoniyatini beradi.



4.1-rasm. Plyonkalarga ishlov beruvchi protsessorning strukturasi.

Protsessorga kirish qismida, valiklardan iborat harakatlantirish tizimi plyonkani ehtiyotkorlik bilan qabul qiladi va to'rttala seksiyadan bir xildagi tezlik bilan o'tkazib beradi, maxsus yo'naltiruvchi moslama esa ularning bir seksiyadan ikkinchi seksiyaga ohista o'tishiga ko'maklashadi. Plyonka protsessordan chiqqach, plyonka uchun ajratilgan maxsus savatcha (15) ga tushadi.

Tasvirni hosil qilish (ochiltirish) seksiyasi (7) da eksponirlash yo'li bilan hosil qilingan yashirin tasvir ochiltiriladi, fiksatsiya seksiyasi (8) da esa u mustahkamlanadi, eksponirlashda kumush galogenidlariga nur tushmagan qismlari esa erib ketadi.

Ochiltirish va fiksatsiya qilish seksiyalari, ularda doimiy bir xil haroratni saqlab turish uchun o'rnatiladigan isitgich va termostatlarning karkaslarini hisobga olmaganda aynan bir xildir.

Har bir rezervuardagi daraja o'lchagichlar, ya'ni detektorlar reaktivlarning ortiqcha ravishda ishlatilishining oldini oladi. Har ikkala seksiya ham eritmaning doimiy haroratini saqlash uchun maxsus sirkultatsion pompalardan foydalaniladi. Eritmalar toshib ketgan hollarda ishlatilgan reaktivlar konteyner (17) ga maxsus

shlanglar orqali o'tkaziladi. Har bir rezervuar ustki panelda turli kondensatlar hamda reaktivlarning qoldiqlari hosil bo'lishining oldini oluvchi maxsus qopqoq bilan ta'minlangan.

Yuvish seksiyasi (10) da plyonkaning ustki qismidagi qolgan reaktivlar yuviladi. Rezervuardagi suv oqimi solenoid klapan (13) orqali va to'lib ketish (to'kish tizimi) orqali boshqariladi, bu boshqarish yuqoridagi panel vositasida amalga oshiriladi.

Quritish seksiyasi (11) da plyonkaning ustki qismidagi namlik yo'qotiladi, ana shundan keyingina plyonkani qo'lga olish mumkin bo'ladi. Seksiyada markazga tomon intiluvchi ventilator (14) o'rnatilgan bo'lib, uning isitgichi hamda biri ikkinchisining ustiga o'rnatilgan havo o'tkazgichlari mavjud.

Ikkita suyuqlik haydovchi pompalar (12) ikkita tashqi konteyner (16) ga birlashtirilgan bo'lib, ular ochiltirgich va fiksajni avtomatik ravishda rezervuarlarga haydaydi, oqibatda ish jarayonida reaktivlarning sarflanishi kamayadi, ya'ni tejaladi. Shuningdek, mazkur tizim reaktivning reaksiyaga kirishi natijasida yo'qotilgan aktivligini tiklash uchun unga ochiltirgich ham qo'shadi.


хотирадаги маълумотлар тозаланади, доимий хотира (BIOS) даги тизим дастури компьютер қурилмалари назоратдан ўтказлади. Агар дастур хато топса бу ҳолда компьютер экранига хабар чиқаради. F1 тугмаси босиш орқали фойдаланувчи юклаш жараёнида давом эттириши мумкин.

Компьютерни диск юритувчига тизимни юклаш дискета қўйиб ҳам юклаш мумкин.

MS DOS операцион тизими юклаш жараёнида экранда

Starting MS DOS ...

хабари пайдо бўлади. Хотирадан DOSнинг IO.SYS ва MS DOS.SYS файллари ўқилади сўнггра конфигурация буйруқлари CONFIG.SYS ва AUTOEXEC.BAT файлларидан ўқилади ва экранда DOS тизим таклифномаси C:\> пайдо бўлади.

Компьютерга маълумотларни киритиш.

Клавиатура билан ишлаш

Одатда маълумотлар IBM PC шаҳар компьютерига клавиатура қурилмаси орқали киритилади. Клавиатура қурилмаси юритувчидан регистрида жойлашган бош ҳарф ва бош ҳарф белгиларни киритиш учун "Shift" тугмаси (клавиши)дан фойдаланилади. Масалан, кичик ҳарфи киритилиши лозим бўлса, у ҳолда клавиатура қурилмасидан "N" ҳарфи ёзилган тугмача босилади. Агар катта "N" ҳарфи киритилиши лозим бўлса, у ҳолда "Shift" тугмачасини босиб туриб, уни қўйиб юбормай "N" ҳарфи ёзилган тугмачани босиш керак. "Caps Lock" катта ҳарфларни киритиш режимини фиксирлайди. "Caps Lock" тугмачасини қайта босиб фиксирлаш режимидан дастлабки режимга ўтказилади.

режимда килади. "Caps Lock" режимида "Shift" тугмасини босиб туриб керакли маълумотларни киритиш пайвратида кичик ҳарфларни киритиш пайвратини беради. Баъзан "Caps Lock" тугмасидан кирилл алфавитига ўтишда ҳам қўлланилади. Алоҳида сон ёки ҳарф ёзилган тугмалардан фарқли ўлароқ, клавиатура тугмасидан махсус тугмачалар ҳам мавжудки, биз айримлари хусусида тўхталиб ўтамиз:

"Enter" (айрим серияли компьютерларда "CR") ёки "GR") тугмачаси қатор ниҳоясида тугмачаси

"Del" (delete — ўчириш) тугмачаси кўрсаткич тугмасидан жойлашган белгиларни ўчиришда ишлатилади;

"Ins" тугмачасидан иккита режимда белгиларни киритиш учун, яъни мавжуд белгини ўчириб ёки мавжуд белгининг ўрнига янги белгини қўйиб киритишда қўлланилади;

"←", "→", "↑", "↓" тугмачалари курсорни ўнгга, чапга, юқорига ва пастга суришда ишлатилади;

"Home" тугмачаси курсорни қатор бошига, "End" тугмачаси эса охирига олиб бориш учун ишлатилади;

"Pg Up" тугмачаси экрандаги мавжуд бўлган маълумотларни бир саҳифа юқорида жойлашган маълумотларни "Pg Dn" тугмачаси эса, бир саҳифа пастга жойлашган маълумотларни экранга чиқариш учун кўрсаткиччи олиб боришда ишлатилади;

"Num Lock" тугмачаси сонларни (0—9) ва белгиларини киритишда (клавиатура тугмачасининг ўнг қисмида жойлашган) ўнғайлик тугмасидан ишлатилади;

"Esc" тугмачаси қандайдир ҳаракатдан чиқишда, дастур бажарилишини тўхтатишда ишлатилади;

— "Ctrl" ва "Alt" тугмачаларидан айри тугмачалар вазифасини, яъни бажару функциясини бир қатор ўзгартириш фойдаланилади. DOS тизимида фойдаланувчи бажару махсус тугмачалар мажмуаси (комбинацияси) бажариш юритишига тўғри келади. Биз уларни айримлари хусусида тўхталиб ўтамиз:

— "Ctrl-Break" амалда бажарилаётган буйруқ ёки дастурнинг ишлашини тугаллаш учун ишлатилади;

— "Ctrl-Alt-Del" DOS ни қайта ишлатиш учун ишлатилади;

— "Ctrl-Print Screen" ёки "Ctrl-P" экрандаги маълумотлар нусхасини қоғозга чиқариш учун фойдаланилади;

— "Ctrl-Alt-F2" миллий клавиатурага ўтатиш учун ишлатилади;

— "Ctrl-C" DOS нинг ихтиёрий буйруқ бажарилишини тўхтатиш учун ишлатилади.

Компьютер қурилмаларининг мантиқий номлари

DOS операцион тизимида компьютернинг бир қурилмаси ўз номига эга. Бу қурилмаларнинг номлари файлларнинг номлари сифатида ишлатилмаслиги лозим, уларнинг асосий қуйидагилардан иборат:

—A.....Z — дисклар;

—PRN — босмага чиқариш қурилмаси —принтер;

—LPT1-LPT3—принтерга боғланган қурилма;

—CON—киритишда клавиатура, чиқаришда экран ;

Alt – барча операцияларни четлаб ўтувчи
"на ҳоказа.

Масалан,

copy litsey prn

litsey файли мазмунини босма қурилмасига
ёки

copy litsey con

litsey файлининг нусхасини экранга
Агар con киритилувчи файлнинг номи
фойдаланилса, масалан,

copy con litsey

у ҳолда барча маълумотлар клавиатура
орқали киритилиши лозим.

Файл тушунчаси

Диск, дискета ёки компьютернинг
дискларидаги барча маълумотлар файлларда

Файл – бирор маълумот сақланувчи дискнинг
соҳаси. Демак, ҳар бир файл ўз белгисига
ёки бўлиши, уни фойдаланувчи ва операцион
тўлиқ тўлиқлиши ва ишлата олиши керак, Дискда
маълумотларни бошқа бир йўсинда ёзиб бўлмайди.
Биргина ҳарфни дискка ёзиш зарур бўлса,
бериб, файл кўринишида хотирада сақлаш

Файллар икки турда, матнли ва графикли бўлиши
Матнли файл фойдаланувчи ўқиши учун

мўлжалланган. Матнли бўлмаган файллар графика ёки кодда ёзилган бўлади.

Файллар иш жараёнида, масалан, матн муҳаррир ёхуд электрон жадвал билан ишлашда бевосита фойдаланувчи томонидан ташкил этилади. Файлнинг асосий белгилари — унинг номи, ўлчови (байт ҳисобида), ташкил этилган санаси (кун ой йил вақти(соат ва дақиқа) ҳисобланади.

Файл асосий номга (кўпи билан саккизта белгилар) кенгайтгичига (кўпи билан учта белги) эга бўлиши мумкин. Файл номи ва кенгайтгичи бир — биринчи нуқта билан ажратилади, масалан;

Autoexec.bat

lex.exe

Litsey.doc

Ном.кенгайтгич

Файл номи ва кенгайтгичи катта ёки кичик латин алифбоси ҳарфлари, сонлар ва символлардан иборат бўлиши мумкин.

Файлни номлашда унинг кенгайтгичи берилган шарт эмас, лекин файл мазмунига кўра кенгайтгич берилса уни ишлатиш осонлашади. Масалан:

- ◆ **.exe, .com** — бажарилувчи файллар;
- ◆ **.bat** — буйруқли файллар;
- ◆ **.bas** — бейсик дастури файллари;
- ◆ **.pas** — паскал дастури файллари;
- ◆ **.txt, .doc** — матнли файллар;
- ◆ **.xls** — электрон жадвали файллар;

Каталог ва диск юритувчи

Магнитли дискларда файл номлари каталогга жамланади. Каталоглар Windows — 98 да жамланади.

каталог деб юритилади. Ҳар бир каталог ўз номига эга бўлади. Бунда бешка каталоглар жойлашиши мумкин.

Ҳар бир каталог — *туб*, ички каталог — *ост* каталог деб юритилади. Демак, дискда каталоглар ҳамма бўлинишида жойлашган бўлади.

Ҳаммадан аввал ишлатаётган каталог *жорий* каталог деб юритилади. Каталогда жойлашган файлни ўқиш учун, албатта файлга бориш йўли белгиланиши лозим. Йўл каталоглар кетма — кетлиги билан ҳар \ — белгиси билан ажратилган бўлади. Ҳар бир каталогда қаттиқ диск, дискета ва компакт дисклар учун мўлжалланган диск юритувчилар бўлади. Уларга мурожаат А, В, С, D, Е ҳарфлари билан ямалоғи оширилади. А ва В дискеталар, Е компакт дисклар, С, D, ... лар винчестер қаттиқ дисклар дисколари учун ажратилган бўлади.

Ҳаёлага тўлиқ йўл қуйидагича берилиши мумкин:

[диск юритувчи:] [йўл \] файлнинг номи

Бунда [диск юритувчи:] — А: ,С:,... диск юритувчининг номи.[йўл \] — файл жойлашган каталогга ўтиш ва файлнинг номи. Агар диск ёки каталог кўрсатилмаса, керакли файл жорий каталогдан қидирилади.

4.1.1 DOS таклифномаси ва буйруқни киритиш

Агар DOS фойдаланувчи билан мулоқотга кириш бўлса, у ҳолда компьютер экранда қуйидаги таклифнома пайдо бўлади:

A> Cки C:|>

Бирор буйруқни компьютерга киритиш учун, ушбу дастлаб клавиатура қурилмасидан териш ва

сўнгра " Enter" тугмачасини босиш Киритилувчи буйруқ ёки дастурни таҳрирлаш клавиатура тугмачалардан фойдаланиш мун Масалан, "Del" — кўрсаткич остидаги символ "Back Space" — кўрсаткич олдидаги символ ўчиришда ишлатилади ва ҳакоза .

MS DOS буйруғи бажарилиши учун дастур мазкур буйруқ номини ва сўнгра қўшимча ном кириштириш лозим.

Буйруқ ёки дастурнинг бажарилиш тўхтатиш учун "Ctrl" ва "Break" тугмачалари вақтда босилади, агар у ёрдам бермаса "Ctrl+Del" тугмачаларини босиб MS DOS ни қайта иштироқи тушириш керак.

Баъзи ҳолларда охириги айтиб ўтган бўлиб ёрдамида ҳам компьютерни ишга тушириш имконияти бўлмай қолади, у ҳолда компьютер қисмида жойлашган "RESET" тугмачаси босилади.

MS DOS OTнинг асосий буйруқлари. Диск ва каталоглар устида амаллар

Диск ёки каталог мундарижасини кўриш

✓ **[DIR буйруғи.** Диск ва каталог мундарижасини барча файлларнинг номлари, қўшимча номлар ташкил қилинган санаси ҳақидаги маълумотлар олиш учун DIR буйруғи ишлатилади.

Буйруқ формати:

dir [диск юритувчи:] [йўл]

Масалан,

C:\>DIR — мазкур каталогдаги маълумотлар экранга чиқаради.

Windows — Windows каталогигади
экранга чиқаради.

Биринчи чиқарилувчи маълумотларни зимдан
диалог мақсадида \P — махсус кўрсаткичи
ордида берилди. Бу параметрнинг ёрдами
ибратки, маълумотлар билан компьютер
тутилган кейин галдаги маълумотлар экранга
Нолбатдаги маълумотларни кўриш учун
тутилган томонидан ихтиёрий тугмача босилади.
кўрсаткич ёрдамида, DIR буйруғи фақат
типи ва номини беради, холос, бунда
устун кўринишида эмас, балки қатор
олади.

Каталог яратиш

MD(MAKE DIRECTORY) буйруғи. Янги
ташкил қилиш учун MD буйруғи

буйруқ формати:

md [Диск юритувчи:] [йўл] каталог исми

C:\>MD NORB

NORB каталогини ташкил қилади.

Каталог ўчириш

RD (Remove Directory) буйруғи. Бўш каталогни
учун RD буйруғи ишлатилади.

буйруқ формати:

rd [диск юритувчи:] [йўл] каталог номи

Масалан,

C:\RD BAS

Буйруғи BAS номли (фақат бўш) каталогни ўчиради.

Каталогга кириш ва чиқиш

CD (Change Directory) буйруғи. Каталогга кириш учун CD буйруғи ишлатилади.]

Буйруқ формати:

Кириш учун: cd [диск юритувчи:] йўл

Чиқиш учун: cd ..

Масалан, қуйидаги буйруқлар билан, мос ҳолда

C:\>CD DOS — DOS каталогига кирилади;

MS DOS да файл устида амаллар бажариш

Файл нусхасини кўчириш

✓ **COPY буйруғи.** Файллар ёки каталоглар нусхасини олиш (кўчириш) учун COPY буйруғи ишлатилади. Файл исми сифатида ёки ? символларини ишлатиш ҳам мумкин.

Буйруқ формати:

**copy [диск юритувчи:] 1-файл номи 2-файл номи
(ёки каталог номи)**

Масалан:

A>COPY *.* C: — A дискдаги барча файлларни C дискка кўчириш учун;

D:>COPY NORB A: — NORB каталогини D дискдан A дискка кўчириш учун;

C:>COPY LITSEY1 LITSEY2 — LITSEY1 файлини шу каталогдаги LITSEY2 файлга кўчириш учун ишлатилади. ✓

COPY буйруғидан бир нечта файлларни бирлаштириш ва натижада янги файлни ташкил қилиш учун ҳам фойдаланиш мумкин, у ҳолда бирлаштирувчи файллар орасига + белги қуйилади. Масалан, сору A1+A2+A3 A4 — буйруғи A1, A2 ва A3 файлларни бирлаштириб янги A4 файлини ташкил этади.

Файлларни қайта номлаш

✓ **REN (Rename)** буйруғи. Файлларни қайта номлаш учун REN буйруғи ишлатилади. Бундай вақтда дастлаб файлнинг эски номи, сўнгра эса янги номи берилади.

Буйруқ формати:

ren [диск юритувчи:] [йўл] [каталог номи] [1-файл]
[янги-файл]

Масалан,

C:>LEX>REN LITSEY.TXT LITSEY.DOC
буйруғи LITSEY.TXT файлига LITSEY.DOC янги номини беради. ✓

Файлларни ўчириш

DEL (Delete) буйруғи. Файлларни ўчириш учун DEL буйруғи ишлатилади.

Буйруқ формати:

del [диск юритувчи:] [йўл\] [каталог номи] файл номи

Масалан,

C:\>DEL WORK — буйруғи WORK каталогидagi барча файлларни ўчириш учун;

C:\>DEL LITSEY.BAS — буйруғи LITSEY.BAS файлини ўчириш учун хизмат қилади.

Ўчирилган файлларни тиклаш

QU буйруғи. Бехосдан ўчирилган файл ёки файлларнинг эски нусхасини тиклашда QU буйруғи (MS DOS 0Тнинг кейинги версияларида UNERASE) ишлатилади.

Буйруқ формати:

qu [диск юритувчи:] [йўл\] файл номи

Масалан,

C:\>QU LITSEY.DOC — буйруғи LITSEY.DOC номли файлни мазкур каталогда қайта тиклаш учун ишлатилади ;

C:\>QU *.TXT — буйруғи мазкур каталогдаги барча қўшимча .TXT номли файлларни қайта тиклаш учун ишлатилади, бу ҳолда барча файллар номининг бош ҳарфлари сўралади.

Бехосдан ўчирилган файлни қайта тиклашда экранда қуйидаги савол пайдо бўлади:

Do you wish quick – unerase this file (Y-N)?

(Бу файлни тиклашни Сиз хоҳлайсизми Y – N)?)

Агар файлни тиклаш зарурати булса "Y" – ҳа, акс ҳолда "N" – йўқ жавобини бериш лозим.

Файл мазмунини экранда кўриш

✓ **TYPE буйруғи.** Матнли (текстли) файлни экранга чиқариш учун TYPE буйруғи ишлатилади.

Буйруқ формати:

type [диск юритувчи:] [йўл\[каталог номи] файл номи

Масалан,

C:>TYPE litsey.txt – буйруғи litseyl.txt файлини экранга чиқаради. Экранга чиқаришни тўхтатиш учун "Ctrl – S" тугмачаларини кетма – кет босиш лозим, шу тугмачаларни қайта босиш эса экранга чиқаришни тиклайди. Экранга чиқаришни тамомлаш учун "Ctrl – C" ёки "Ctrl – Break" тугмачалари босилади. ✓

Матнли файл ташкил қилиш

Кичик ҳажмдаги матнли файлларни бевосита MS DOS OT да клавиатура қурилмасидан фойдаланиб ташкил қилиш мумкин. Бунинг учун қуйидаги буйруқ берилади.

Буйруқ формати:

Сору con файл – номи

Буйруқ киритилгач, матн кетма — кет терилади. Ҳар бир қатор ниҳоясида [Enter] тугмаси босилади. Файлнинг ёпилиши учун [Ctrl] [Z] ёки [F0] тугмаси ва [Enter] босилади. Экранда қуйидаги

1 file(s) copied

(битта файл нусхаланди)

хабар ва дискда кўрсатилган номли файл пайдо бўлади.

Файлнинг яроқлилигини текшириш

Агар дискета носоз бўлса (айрим ҳолларда файлларни диск юритувчи ўқиши қийин бўлиб қолади), файл ўқилишини текширишни Сору буйруғи билан файлни бўш қурилмага кўчириш орқали бажариш мумкин.

Буйруқ формати:

Сору /b файл - номи nul

Масалан, Сору /b a:*.txt nul. А дискда барча .txt туридаги файллар ўқилиши текширилади.

Файлни бошқа каталогга ўтказиш

MS DOS OT нинг 6 версиясидан бошлаб файлни бошқа каталогга ўтказиш буйруғи Move мавжуд. У баъзан файлларни қайта номлашда ҳам ишлатилади.

Буйруқ формати:

Move [/Y] файл номи каталог номи

пунда [/Y] қўшимча сўроқларсиз файл ёзилади.

Файлни қидириш

Дискда файлни номи бўйича қидириш учун Norton Utilites мажмуасига кирувчи File Find дастурини ишлатиш мумкин.

Буйруқ формати:

File find файлининг номи

Масалан File find : n*.txt буйруғида n ҳарфи билан бошланувчи .txt кенгайтмага эга бўлган барча файлларни излаш деган маънони англатади.

Файлларни таққослаш

Файлларни жойлашиши, ҳажми (байт қисобида), кенгайтмаси бўйича таққослаш учун DOS OT FC дастури мавжуд.

Буйруқ формати:

FC [параметрлар] 1-файл номи 2-файл номи

Масалан, fc nti.doc nti1.doc>taj буйруғи nti.doc ва nti1.doc файллар орасидаги фарқни taj файлига ёзади.

Экрани маълумотлардан тозалаш

CLS буйруғи. Компьютер экранини тозалаш учун CLS буйруғи ишлатилади.

Буйруқ формати:

cls

Масалан,

C:\>CLS — буйруғи орқали экран тозаланади ва экраннинг биринчи қаторига MS DOS нинг таклифномаси чиқади.

Файлни чоп қилиш

PRINT буйруғи. Файлларни чоп қилиш учун PRINT буйруғи ишлатилади.

Буйруқ формати:

print [диск юритувчи:] [йўл] [каталог номи] файл номи

Масалан,

C:\>PRINT LITSEY.TXT — буйруғи LITSEY.TXT файлини чоп қилиш қурилмасига чиқаради.

Диск ёки дискетани форматлаш

FORMAT буйруғи. Дискеталарни биринчи мартаба ишлатишдан олдин у билан DOS тизими учун мулоқотта имконият яратилиши лозим.

Буйруқ формати:

format диск юритувчи номи:

Масалан, А дискетани форматлаш (инициализация қилиш) учун буйруқ қуйидагича берилади:

C:\>FORMAT A:

Мободо, дискетага қандайдир маълумотлар ёзилган бўлса, у **FORMAT** буйруғи берилиши билан ўчирилади. Буйруқ берилгандан кейин экранда қуйидаги сўров пайдо бўлади:

Insert new diskette to drive x: and strike enter when ready

(дискетани қуйинг ва "Enter" тугмачасини босинг).

Агар дискета яроқсиз бўлса, у ҳолда

Track 0 bad – disk unusable

(0 – йўл яроқсиз, дискетадан фойдаланиш мумкин эмас) хабари пайдо бўлади.

Дискета форматлангандан кейин яна қуйидаги сўров пайдо бўлади:

FORMAT another (Y/N)?

{яна форматлаш керакми (Y – ҳа, N – йўқ)?}

Фойдаланувчи эса ўз навбатида керакли маълумотни бериши лозим.

Компьютерга жорий йилнинг куни, ойи ҳақида маълумот олиш ва унга ўрнатиш

DATE буйруғи. Компьютерда йил, ой ва кун ҳақида маълумот олиш ва киритиш учун **DATE** буйруғи ишлатилади.

Буйруқ формати:

date

Масалан, C:\>DATE —буйруғи экранга кун, ой, йил ҳақида маълумот беради, агар янги маълумот киритиш лозим бўлса "Enter" тугмачаси босилади, у ҳолда

Enter new date (dd-mm-yy)

сўрови пайдо бўлади. Киритилувчи сатр, масалан, 18-01-2001 каби берилиши мумкин.

Компьютерга жорий вақтни ўрнатиш

✓ **TIME буйруғи.** Компьютерга вақтни (соат ва минут ҳисобида) киритиш ҳамда ундан маълумот олиш учун TIME буйруғи ишлатилади.

Буйруқ формати:

time

Масалан,

C:\>TIME <Enter>

Агар TIME қўшимча параметрларсиз берилса, у ҳолда DOS мазкур вақтни киритишни сўрайди. Сиз вақт ҳақида маълумот беришни истамасангиз "Enter" тугмачасини босишингиз мумкин. ✓

Маълумот олиш

MS DOS OT нинг 5 ва 6 версиялари DOS буйруқлари ва уларни ишлатиш кўлами ҳақида қисқача маълумот бериш имкониятига эга. Бунинг учун қуйидаги буйруқ берилади

Буйруқ формати:

FAST HELP ёки FAST HELP буйруқнинг номи

MS DOS нинг 6 версиясида махсус маълумотнома бўлиб, уни чақириш учун

HELP ёки HELP . маълумотнома — мавзуи

буйруғи берилади. Агар маълумотнома мавзуси кўрсатилмаса, маълумотнома мундарижаси экранга чиқарилади. Маълумот экранга сиғмаса [Page Down] ёки [Page Up] тугмалари ёрдамида кейинги ёки олдинги саҳифаларни кўришимиз мумкин. [Ctrl — Home] ва [Ctrl — End] мос ҳолда мавзу бошига ва охирига ўтиш имконини беради.

Маълумотномадаги жорий мавзуни чоп қилиш ёки файлга ёзиш учун [Alt] [F] ва [P] тугмачалари босилади, бунда F — файлга, P — принтерга чиқарилишини таъминлайди.

?

Бевосита компьютерда қуйидаги

саволларга амалий жавоб беринг:

1. Компьютерни юкланг.
2. MS DOS OT ни юкланг.
3. Кириллча шрифтдан лотинча шрифтга ўтинг ва аксинча лотинча шрифтдан кириллча шрифтга ўтинг.
4. Бошқа дискка ўтинг.
5. «Таржимаиҳол»ингиз акс этган матнли файлни яратинг.
6. Файлни қайта номланг.
7. Файлни нусхаланг. Бир неча файл яратиб бирлаштиринг.
8. Файлни ўчириг.
9. Файлни кўчириг.
10. Ўчирилган файлни тикланг.
11. Каталог яратинг.
12. Жорий дискни алмаштиринг.
13. Каталог мундарижасини кўринг.
14. Каталогга кириг.

15. Каталогдан чиқинг.
16. Каталогни ўқиринг.
17. Файл мазмунини экранга чиқаринг.
18. Экрандан маълумотларни тозаланг.
19. Файлни чоп қилинг.
20. Дискни форматланг.
21. Компьютердан жорий йилнинг куни, ойи ҳақида маълумот олинг ва унга ўрнатинг.
22. Компьютердан жорий куннинг вақти ҳақида(соат, минут ва секунд) маълумот олинг ва унга ўрнатинг.
23. Компьютерни ўқиринг.



Nc

III ҚИСМ NORTON COMMANDER қобикъ дастури



Сиз китобнинг III қисмини
мутоала қилиб, *Norton
Commander қобикъ дастури*
хақида қуйидаги назарий
билим ва амалий
кўникмаларга эга бўласиз:

- қобикъ дастурлар хақида умумий маълумотлар;
- *Norton Commander* дастурини юклаш ва ундан чиқиш;

- *НСга ёрдам олиш;*
- *НС менюсига ишлаш;*
- *НСга клавиатура ва сичқончани ишлатиш;*
- *НС дарчаси ва унинг устидга амаллар;*
- *НСнинг функционал тугмалари тавсифи билан танишиш;*
- *НСга файл яратиш ва унга маълумот ёзиш;*
- *Файлни дискка кўчириш;*
- *Файл мазмунини кўриш ;*
- *Файлни таҳрирлаш;*
- *Файлни нусхалаш;*
- *Бир неча файлни бир вақтда нусхалаш;*
- *Файлни қайта номлаш;*
- *Файлни чоп қилиш;*
- *Файлни ўчириш;*
- *Каталог яратиш;*
- *Каталогга кириш ва ундан чиқиш;*
- *Каталогни қайта номлаш;*
- *Каталогни ўчириш;*
- *Дарчада каталог дарахтини кўриш;*
- *Бошқа дискка ўтиш;*
- *Ўнг ёки чап дарчага диск мундарижасини чиқариш;*
- *Дарчалар билан ишлаш, улар ўрнини алмаштириш, чап ёки ўнг дарчадан олиб ташлаш, бир дарчадан бошқа дарчага ўтиш;*
- *Дискдан файлни тез қидириб топиш;*
- *Дискдаги жойни аниқлаш;*
- *Файллар гуруҳини ташкил этилган санаси, ҳажми, алифбо бўйича номи билан саралаш;*
- *НС нинг бошқа меню буйруқлари билан ишлаш;*
- *НС дан чиқиш.*

Қобик дастурлар ҳақида умумий маълумотлар


MS DOS OT муҳити билан ишлаш дастурлари оғирда энг оммавийлашган қобик дастур Peter Norton Computing фирмаси томонидан яратилган Norton Commander (NC) қобик дастури ҳисобланади. Оғирда DOS муҳитида фойдаланувчилар файл ва каталоглар яратиш, қайта номлаш, нусха олиш, кўчириш каби бир қатор ишларни бажаришига тўғри келади. Бундай ҳолларда NC қобик дастуридан фойдаланиш қулай. NC қобик дастуридан бошқа MS DOS муҳити билан ишлаш учун мўлжалланган бир қатор қобик дастурлар, хусусан Volkov Commander (NC қобик дастурига ўхшаш), Pie Commander, Command Processor, Qdos, Path Minder, Xtree, Victoria каби дастурлар яратилган бўлиб, улар кўпчилик ҳолатларда, жумладан, бизнинг республикамызда энг оммалашмади. Ҳатто Windows қобик дастурининг дарахтки версиялари NC га ўхшаш қилиб яратилган.

Norton Commander қобик дастури ёрдамида файлнинг ихтиёрий буйруғини бажариш билан бир ҳолда:

- файл яратиш, қайта номлаш, кўчириш ва ўчириш;
- дискдаги каталог мазмунини яққол кўриш;
- дискдаги каталог дарахтини кўриш, керакли каталогларга ўтиш;

Norton Commander дастурини юклаш ва ундан чиқиш

NC дастурини танлаш учун MS DOS муҳитида бўйруғи клавиатурадан терилади ва "Enter" босилади. Натижада компьютер экранида юклаш дарча (панел) очилади (1-расм). NC дастуридан чиқиш учун F10 (Quit-Выход) тугмаси босилади. Экраннинг ўрта қисмида NC дастуридан чиқиш ҳақида сўров пайдо бўлади. Сўровга клавиатурадан Y (русча версияда D) тугмача NC дастуридан чиқиш учун, акс ҳолда N(русча версиясида H) тугмача босилади.




2-расм. Ёрдам олиш

NC дастурида қўшимча маълумот ёки ёрдам олиш учун F1 тугмаси босилади(2-расм). Агар файл танлаш олиниш жараёнида F1 тугмаси босилса, экранда файлларни кўчириш ҳақида маълумот пайдо бўлади. Маълумот тўлалигича экранга жойлашмаса, "↓", "Home", "End", "PgUp", "PgDn" тугмачалари

ёрдамида керакли жойгача суриш ёки саҳифалар билан кўрилади. Маълумотноманинг қуйи қисми Next (Далее), Previous (Назад), Index (Указатель), Cancel (Отмена) ёзувлари жойлашган тугмачалар мавжуд бўлиб, уларда → ёки ← тугмачалар ёрдамида кўчиш орқали ҳам бошқа экранга ўтиш мумкин. Тугмачалар қуйидаги мақсадда ишлатилади:

— Next (Далее) — маълумотноманинг



3—расм. NC менюси.

навбатдаги мавзусига ўтиш;

— Previous (Назад) — маълумотноманинг олдинги мавзусига ўтиш;

— Index (Указатель) — маълумотнома мундарижасини чиқариш;

— Cancel (Отмена) — маълумотномадан чиқиш.

3. NC менюсида ишлаш

NC менюсига кириш учун F9 (PullDn ёки) тугмасини босиш kifoya. Натижада экраннинг юзаси қаторида бирор банд ажратилган ҳолда (Аввал), Files (Файл), Disk(Диск), Commands(Команды), Options (русча версиясида йўқ), Right (Ўнг) бандлари пайдо бўлади (3—расм). NC турининг 5.0 версиясида Tools (Утилиты) банди қўшилган бўлади.



4 — расм. Буйруқлар қисми


Керакли банд →, ← тугмачалари ёрдамида танланади ва "Enter" тугмаси босилади ва экранда меню ости буйруқлари пайдо бўлади. ↑, ↓ тугмачалари ёрдамида меню ости буйруқлари танланади. "Enter" тугмасини босиш ёрдамида мазкур буйруқни бажариш мумкин.

Менюнинг **Чап** (Левая) қисмига (3—расм) мурожаат этилганда экранда иккиламчи дарча ҳосил бўлади. Дарча бандларида файлларнинг қисқа (номи ва қўшимчаси) тўла(номи, қўшимчаси), ҳажми, ёзилган санаси ва вақти) кўриниши, хотирада файллар каталоглар банд қилган ҳажм, каталогларнинг жойлашишини аниқлаш, ҳар бир каталогнинг жойлашган файллар сони ва хотирада ҳосил қилинган умумий ҳажмини аниқлаш каби вазифалар амалга оширилади.

Бундан ташқари файлларни исмлари ва қўшимчаларини алифбо бўйича, ҳажм катталиклари ва ёзилган саналари бўйича тартибга солиш мумкин. Бунинг учун керакли бандларга мурожаат қилиб жадвалларининг ўнг ёки чап қисмида (4—расм) керакли маълумотларни ҳосил қилиш мумкин.

Команды қисмининг бандларидан фойдаланиш каталогларни ва файлларни ахтариш, экранда сатрлар сонини кўпайтириш ёки камайтириш, фойдаланилаётган компьютер тизимининг имкониятлари ҳақида маълумот олиш мумкин. Масалан, фойдаланувчи учун зарур бўлган файллар тез топиш учун **Поиск** қисмига мурожаат қилинганда экранда иккиламчи дарча ҳосил бўлиб, у ердан **Найти файл** сатрига изланаётган файлнинг белгиси ёзилади ва **Старт** фаоллаштирилади (5—расм). Бу қисмининг иккинчи гуруҳ бандларида жадваллар ўрнини алмаштириш, олиб ташлаш, солиштириш, мослаштириш каби амалларни бажариш мумкин.


Компьютердан фойдаланувчи иш жараёнида файлларга мунтазам муружаат



5-рasm. Файл излаш

ишлари мумкин. Бу ишни осонлаштириш учун
тўғридан-тўғри қўрилган қисмининг тўртинчи гуруҳида
фойдаланувчининг менюси (Меню пользователя)
банди мавжуд. Файлларнинг қўшимчалари устида
қилинган ишлар учун қўшимчалар муҳаррири
қўрилган.

Команды қисмининг охири банди
конфигурация деб аталиб, бу ерда NC
конфигурациясини ташкил қилиш мумкин(6 – расм).



6 — расм.

NC конфигурациясини ташкил қилиш

Клавиатура ва "сичқонча" ни ишлатиш

Бир дарчадан иккинчи дарчага ўтишда Tab тугмачаси босилади. NC дастурида сўров майдонларида юришда ҳам "Tab" ёки "Shift", "Tab" тугмачалари мажмуасидан фойдаланилади. Майдон матнли, байроқчали ёки бир неча режимли бўлиши мумкин. Майдонда керакли буйруқни танлаш, айнан кўрсаткич турган майдондагина бажарилади. Бошқа майдонга ўтиш учун →, тугмачаларида фойдаланилади.

"Enter" ва "End" тугмачалари ёрдамида майдон тартига ўтиш, "Del" тугмаси ёрдамида кўрсаткич чап томондаги "Back Space" тугмаси ёрдамида кўрсаткич ўнг томондаги белгини ўчириш мумкин.

NC дастурида ишлашда экранда қизил рангли тўғрибурчак шаклида "сичқонча" кўрсаткичи пайдо бўлади. Бу тўғрибурчакни "сичқонча" ёрдамида экраннинг керакли жойига силжитишимиз мумкин.

NC да "сичқонча" ёрдамида:

- бирор файлни, меню бандларини, сўровга жавобларни танлаш;
- каталогга кириш;
- менюдаги меню ости буйруқларини танлаш;
- буйруқларни бекор қилиш ва яна бир қатор буйруқларни бажариш мумкин.

NC дарчаси ва унинг устида амаллар

NC дарчасида дискдаги каталог ва файллар иерархијаси, дискдаги каталоглар дарахти, диск ва каталог ҳақида маълумот, файл мазмуни, ажратилган файл сони ва ҳажми, архивланган файллар иерархијаси ва яна бир қатор маълумотлар акс этади.

Экрандаги NC нинг бир дарчаси ҳамма вақт фаоллашган, иккинчиси фаоллашмаган, фаоллашган даража мавзуси алоҳида ажратилган бўлади. NC даги дарча ҳаракатлар одатда фаоллашган дарчада бажарилади.

№	Функционал тугмачалар	Вазифаси
1.	"Ctrl — U"	Дарча ўрнини алмаштириш
2.	"Ctrl — P"	Кераксиз дарчани экрандан олиш ва экранга чиқариш
3.	"Ctrl — O"	Дарчани экрандан олиш ва экранга чиқариш
4.	"Ctrl — L"	фаоллаштирилмаган дарчани олиб ташлаш ва чиқариш;
5.	"Ctrl — F1"	Чап дарчани экрандан олиш ва уни экранга чиқариш
6.	"Ctrl — F2"	Ўнг дарчани экрандан олиш ва уни экранга чиқариш
7.	"Ctrl — F3"	Дарчада алифбо тартибда каталог ва файллارни саралаш;
8.	"Ctrl — F4"	дарчада алифбо тартибда файл кенгайтгичи бўйича саралаш;
9.	"Ctrl — F5"	Дарчада файл ва каталогларнинг ташкил этилган санаси бўйича саралаш;
10.	"Ctrl — F6"	Файлларнинг ҳажмини камайтиш тартибда саралаш
11.	"Ctrl — F7"	Дарча, каталог, файлларни асл ҳолда кўриш;
12.	"Ctrl — F9"	Ажратилган файл ёки файллар гуруҳини чоп қилиш;
13.	"Alt — F1"	Чап дарчага керакли дискета мундарижасини чиқариш
14.	"Alt — F2"	Ўнг дарчага керакли дискета мундарижасини чиқариш

Дарчадан иккинчисига ўтиш учун **ТАВ** тугмаси берилади. Дарчаларда бажарилиши мумкин бўлган амаллар 1 – жадвалда келтирилган.

Функционал тугмачалар

NC дастурида экраннинг қуйи қисмида функционал тугмачалар вазифалари ҳақида қисқа маълумот жойлашган (1 – расмга қаранг).

1-у функционал тугмачалар ва тугмачалар муносибсининг қисқача тавсифини келтирамыз(2 – жадвал).

2 – жадвал

№	Буйруқ ёки вазифали тугмачалар	Вазифаси
1	F1(Help ёки помощь)	NC билан ишлаш жараёнида тугмачалар вазифаси ҳақида маълумот (ёрдам) беради.
2	F2 (Menu ёки Вызов)	Фойдаланувчи менюси рўйхатидаги буйруқни ишга туширади.
3	F3 (View ёки Чтение)	Файл мазмунини кўришда ишлатилади. Матнли, архивланган, электрон жадваллар ва бир неча матн муҳаррирларида тайёрланган ҳужжатларни кўришда ишлатилади.
4	F4 (Edit ёки Правка)	Файлни таҳрирлашда ишлатилади.
5	F5 (Copy ёки Копия)	Файлдан нусха олишда ишлатилади. Экран ўртасида файл кўчириладиган манзил ҳақида сўров пайдо бўлади. Фойдаланувчи файл

		кўчириладиган манзил (диск ва каталог) ни кўрсатиши лозим, акс ҳолда иккинчи дарчадаги очилган каталогга файл нусхаланади.
6	F6 (Renmov ёки Новое имя)	Файл ёки каталогни қайта номлашда ишлатилади. Файл ва каталогни янги ном бериш билан керакли жойга кўчириш ҳам мумкин.
7	F7 (MkDir ёки Новый каталог)	Янги каталог ташкил қилиш учун ишлатилади.
8	F8(Delete ёки Удал — e)	Файл ёки каталог (файллар гуруҳи ёки каталоглар)ни ўчиришда ишлатилади
9	F9 (PullDn ёки Меню)	NC бошқарув менюсини экранга чиқаради. Бу меню ёрдамида лозим бўлган буйруқларни ҳам бажариш мумкин.
10	F10 (Quit ёки Выход)	NC қобик дастуридан чиқишда ишлатилади.

Юқорида жадвалда келтирилган функционал тугмаларнинг файл ва каталоглар билан ишлашга она вазифалари NC менюсининг Файл бандларида кўриш мумкин. (7 — расм). Бундан ташқари маълум мақсадлар учун файлларни ажратиб олиш (выделить файлы) ёки ажратиб олишни бекор қилиш ва ўрнини алмаштириш ва қайтадан ташкил қилиш каби вазифаларни амалга оширишимиз мумкин. Файлларни қисмларга бўлиш ёки жамлаш Ctrl — F10 га мос келувчи бандда бажарилади.

Файл	Диск	Команда	Клавиша
Справочная информация			F1
Вызов меню пользователя			F2
Просмотр файла			F3
Редактирование файла			F4
Копирование файла/каталога			F5
Переименование/перенос			F6
Создание каталога			F7
Удаление файла/каталога			F8
Разрезать/слить файл			Ctrl-F10
Установка атрибутов файла			
Выделить файлы		Серый +	
Снять выделение		Серый -	
Инвертировать выделение		Серый *	
Восстановить выделение			
Выход			F10

7 – расм. Файллар билан ишлаш


NC да диск билан ишлаш

Дискни форматлаш учун NC менюсига F9 кириб, Disk (Диск) менюси остидан FORMAT (Форматировать дискету) бандини танлаш. Сўнгги экранда Drive (Дисковод) бандида танланадиган дискета танланади. Size (Размер) да мазкур дискета ҳажми берилади. FORMAT (Тип форматирования) бандида форматлаш типини, Safe (Безопасное) бандида дискета қилинади (илгари форматланган дискеталар учун,

Quick (Быстрое) — дискет текширилмай зудан форматланади.

Дискетага махсус белги қуйиш учун Options (Опции) сўровидан фойдаланилади. Агар дискет тизимли (системли) диск қилиниши жоиз бўлса Make System Disk (Создать системный диск) банди белги қуйиш лозим.

Дискетадан нусха олиш учун Copy Diskette (Копировать дискету) банди NC нинг Disk (Диск) менюсидан танланади ва Source (Источник) сўровномасида кўчириши лозим бўлган маълумот (диск ёки файл), Target (Получатель) банди кўчирилиши лозим бўлган манзил кўрсатилади.



8 — расм. Дисклар устига амаллар бажариш

Дискда белгини алмаштириш учун Disk (Диск) менюсида Label disk (Метка диска) банди танланади ва янги белги киритилади.

NORTON COMMANDER дастурида ишлатиш жараёнида қуйидаги жадвалларда келтирилган қисқача маълумотлардан

фойдаланиш мумкин. 3 — жадвалда NC функционал тугмачалар вазифалари келтирилган.

Буйруқ ёки функционал тугмачалар	Бажарувчи вазифаси
"F1 – Help"	Функционал тугмачалар вазифаси ҳақида маълумот олиш
"F2 – User Menu"	Фойдаланувчи буйруқлари менюсини чиқариш
"F3 – Edit"	Файлни кўздан кечириш
"F4 – EDIT"	Файлни таҳрир қилиш
"F5 – Copy"	Файл ёки файллар гуруҳидан нусха кўчириш
"F6 – RenMov"	Каталогларни қайта номлаш ва бошқа каталогга кўчириш
"F7 – Mkdir"	Ички каталоглар ташкил этиш
"F8 – Delete"	Файл, файллар гуруҳи ёки каталогни ўчириш
"F9 – PullDn"	NC менюси
"F10 – Quit"	NC дан чиқиш
"Shift – F3" – View	Файлни кўздан кечириш Файлнинг номи сўралади
"Shift – F4" – Edit	Файлни таҳрир қилиш Файлнинг номи сўралади
"Shift – F5" – Copy	Файл ёки файллар гуруҳидан нусха олиш. Қайси файлни қаерга кўчириш сўралади
"Shift – F6" – Renmov	Файллар ёки каталогларни қайта номлаш ва бошқа каталогга кўчириш. Кайси файл ёки каталогни қандай, қаерга кўчириш лозимлиги сўралади
"Shift – F9"	NC да мавжуд режимни сақлаш

16.	"Alt – F3" – View	НСнинг махсус ёрдамида файлларни кечириш
17.	"Alt – F4" – Edit	Альтернатив муҳаррир ёрдамида файлни таҳрир қилиш
18.	"Alt – F7" – Search	Дискдаги файлни қидириш
19.	"Alt – F8" – History	Олдиндан киритилган буйруқларни кўздан кечириш ва қайта бажариш
20.	"Alt – F9" – Egahn	Экранда 25 талик сатрдан талик сатрга ўтиш
21.	"Alt – F10" – Tree	Бошқа каталогга зудлик билан ўтиш





Бевосита компьютерда қуйидаги саволларга амалий жавоб беринг:

1. НСда файл яратинг.
2. Файлга маълумот ёзинг.
3. Файлни дискка кўчиринг.
4. Файл мазмунини экранда кўринг.
5. Файлни таҳрирланг.
6. Файлни нусхаланг.
7. Бир нечта файлни бир вақтда нусхаланг.
8. Файлни қайта номланг.
9. Файлни чоп қилинг.
10. Файлни ўчиринг.
11. Каталог яратинг.
12. Каталогга кириг.
13. Каталогдан чиқинг.
14. Каталогни қайта номланг.
15. Каталогни ўчиринг.
16. Дарчада каталог дарахтини кўринг.
17. Бошқа дискка ўтинг.
18. Ўнг дарчага диск мундарижасини чиқаринг.
19. Чап дарчага диск мундарижасини чиқаринг.

дарчадан олиб ташлаш, бир дарчадан бошқа
дарчага ўтиш ишларини бажаринг.
Айвон файлини қидириб топинг.
Айвондаги бўш жойни аниқланг.
Файллар гуруҳини ташкил этилган санаси, ҳажми, алифбо
ординомлари билан сараланг.
"Файл" меню буйруқлари билан ишланг.
"Файл" менюни чиқинг.



ЛЕКСИКО
МАТ
МУҲАРРИР



Сиз китобнинг IV қисmini
мутоала қилиб, Лексикон мати
муҳаррири ҳақида қуйидаги
назарий билим ва амалий
қўникмаларга эга бўласиз:

- **Лексикон матн муҳарририни юклаш;**
- **Матнни киритиш ва таҳрирлаш;**

- 1 Лексикон менюси билан ишлаш;
- 2 Ҳужум олиш;
- 3 Матнни кириштиш;
- 4 Матнни таҳрирлаш;
- 5 Матнни хотирада сақлаш;
- 6 Матнни дискдан экранга чақириш;
- 7 Матн қисмлари билан ишлаш;
- 8 Матнни форматлаш;
- 9 Матнни саҳифаларга бўлиш;
- 10 Ҳужумларни матндан ахтариш ва ўзгартириш;
- 11 Шрифтлар билан ишлаш;
- 12 Ҳужумлар билан ишлаш;
- 13 Жағвалар тузиш;
- 14 MS DOS га чиқиш ва ундан қайтиш;
- 15 Матнни чоп қилиш;
- 16 Лексикондан чиқиш.

Умумий маълумотлар

MS DOS муҳитида ишловчи матн муҳаррирлари қаторида Е.Н.Веселов ва "Микроинформ" фирмаси томонидан яратилган Лексикон матн муҳаррири қўлланмада ўрин тутади. Мазкур матн муҳаррири қўлланмада рус ва инглиз тилида ҳар хил ҳужжатлар, ҳисобот, мақола, тижорат хабарлари каби бир қанча турли матнли маълумотларни зудликда тайёрлаш ва чоп қилиш мумкин. Бу матн муҳаррири ёрдамида ҳар хил шрифтда (кирилл алифбосига қ,ғ,х,ў ҳарфларини қўшиш назарда тутилмоқда) ва латин алифбоси асосида ўзбек тилида ҳар хил маълумотларни ҳам осонлик билан тайёрлаш мумкин.

Лексикон матн муҳаррири қўлланмада:

— матнни киритиш, таҳрирлаш ва кўздан кечириш;

— қатор ораллиқлари абзацини ўрнатиш;

— автоматик тарзда матнни саҳифаларга бўлиш;

— матн қисмини ажратиш ва уни керакли жойга нусхалаш;

— ҳужжат мундарижасини тузиш;

— ҳар хил шрифтларга — оддий, қуюқ, оғма, тагига чизиб ёзиш;

— бир вақтда бир нечта ойнада бир нечта ҳужжатни тайёрлаш, таҳрир қилиш, биридан иккинчисига кўчириб ўтиш каби бир қатор ишларни бажариш мумкин.

Лексиконни юклаш ва ундан чиқиш

Лексикон матн муҳарририни юклаш учун LEXICON каталогига кириб, lex.exe файли устига кўрсаткич келтирилиб "Enter" тугмаси босилади.

Лексиконда тайёрланган бирор файлни юклаш учун LEXICON каталогига lex "файл номи" "Enter" буйруғи берилади.

Лексикондан чиқиш учун F10 тугмаси босилади, →, ← тугмалари ёрдамида "Выход" сўзи ёзилган банд танланади ва "Enter" тугмаси босилади. Агар таҳрирланаётган файлда қўшимча тузатишлар бўлмаса, лексикон ўз ишини якунлайди, акс ҳолда экранда "В окне несохронённый текст" хабари пайдо бўлади. Фойдаланувчи бу ҳолатда қуйидаги буйруқлардан бирини танлаши мумкин:

Enter — матнни сақлаш учун;

Esc — матнни хотирада сақлаб лексикондан чиқиш учун;

Бўшлиқ — Лексикондан чиқишни бекор қилиш учун.

Лексиконда функционал тугмачалар вазифаси, матн қисмини ажратиш, уни махсус жойга нусхалаш, абзац чегараларини ўрнатиш, форматлаш учун F1 тугмаси босилади.

Лексикон менюси билан ишлаш.

Лексикон экранининг юқори икки қаторида матн ва унинг қисмлари устида турли хил амаллар бажариш учун мўлжалланган Лексикон менюси жойлашган. Биринчи қаторда "Для входа в меню нажмите F10" матни ҳамда ойналар номери 1 2 3 4 5 6 7 8 9 0 жойлашган. Ойналар номери орасида тегишли ойна тартиби ажралиб туради. Бир ойнадан бошқа ойнага ўтиш учун "Alt"+"0" - "Alt" + "9" тугмачалар мажмуасидан фойдаланилади.

Менюга кириш учун F10 тугмаси босилади ва керакли банд "←", "→", "Home", "End" тугмачалари тугмачалари ёрдамида танланади. Танланган банд бажарилиши учун "Enter" тугмаси босилади.

Менюдан таҳрирланаётган матнга қайтиш учун "Esc" босилади.

Лексикон бош менюси буйруқлари тавсифи қуйидагича:

Текст — матн устида амаллар бажарилиши, яъни юклаш, хотирада сақлаш, босмага чиқариш ва ҳ.к.;

Лексика — матннинг тўғри ёзилганлигини текшириш;

Абзац — матн абзацини тўғрилаш, форматлаш параметрларини танлаш;

Фрагмент — матн қисмлари устида амаллар бажариш, яъни ажратиш, ўрнига қўйиш, ўчириш ва ҳ.к.;

Страницы — матнни саҳифаларга бўлиш, саҳифаларга бўлиш параметрлари (қатор оралиғи,

саҳифа тартиби ва ҳ.к.) ни ўрнатиш, мундарижа тайёрлаш;

Найти — матндан сўз қидириш;

Заменить — матндан сўз қидириш ва уни алмаштириш;

Метка — "Перейте" банди ёрдамида тез қайтиш имконини берувчи ҳужжатда тегишли жойга белги қўйиш;

Прыг — матнда олдиндан белги қўйилган жойга ўтиш;

Шрифт — матн терилишида одатдаги, оғма, яримёғлик, тагига чизиб ёзиш учун шрифт ўрнатиш, матндаги шрифтни алмаштириш;

ДОС — MS DOS муҳитига ўтиш (қайтиш Exit буйруғи билан)

Выход — Лексикондан чиқиш;

Матнни киритиш ва таҳрирлаш

Матнни одатда клавиатура қурилмасидан териб киритилади. Дастлаб, кўрсаткич (курсор) экранда керакли жойга келтирилади. Киритилаётган матн кўрсаткич турган жойга жойлашади.

Агар кирилл алифбосидан латин алифбосига ўтиш лозим бўлса F9 тугмаси босилади. Сичқонча билан ишлаш жараёнида менюнинг маълумотнома қаторида "рус"/"лат" банди устида "Сичқонча"нинг чап тугмасини босиш лозим. Айрим клавиатура драйверлари ҳар хил бўлганлиги сабабли кирилл алифбосидан латин алифбосига ўтиш, баъзан икки марта "Shift"ёки "Ctrl" билан ҳамкорликда босилганда амалга ошиши бўлиши мумкин.

Матнни янги хат бошидан бошлаш учун қатор ниҳоясида "Enter" тугмасини босиш лозим, акс ҳолда кўрсаткич автоматик равишда қатор ниҳоясидан янги қатор бошига келади.

Матндаги ортиқча белгиларни олиб ташлаш учун кўрсаткич мазкур белги олд томонига келтирилади ва "Del" тугмаси ёрдамида ўчирилади. "Back Space" тугмаси кўрсаткич чап томонидаги белгиларни ўчиришга хизмат қилади. "Shift+Del" тугмачалар мажмуаси кўрсаткичдан ўнг томонда турган барча белгиларни қатор охиригача ўчириш учун хизмат қилади. "Shift" + "Back Space" тугмачалари мажмуаси кўрсаткич олдида жойлашган барча белгиларни қатор бошигача ўчириш учун хизмат қилади.

Қаторни иккига бўлиш учун бўлинадиган матн майдонига кўрсаткич келтирилади ва "Enter" тугмаси босилади. Икки қаторни бирлаштириш учун биринчи қатор охирига кўрсаткич келтирилади ва "Del" тугмаси босилади. қаторда белгилар жойлашиши мақсадга мувофиқ булмаса қатор бошига ёки хат бошига кўрсаткич келтириб, мазкур хат бошини "Ctrl+F8" тугмачалар ёрдамида форматлаш мумкин.

Матн қисмини ажратиш ва шрифт ўрнатиш

Матннинг бирор қисми устида амаллар бажариш учун уни даставвал ажратиш лозим. Ажратилувчи қисм қаторлар ёки қаторнинг маълум бир бўлаги бўлиши мумкин. Қаторни матндан ажратиш учун, мазкур қатор бошига кўрсаткич келтирилади ва F3 тугмаси босилади ва ↑, ↓, Home, End тугмалари ёрдамида керакли қисм ажратилади. Ажратилган қисмни ўчириш ёки чўнтакка олиш учун "Ctrl"+F3 тугмачалар мажмуаси биргаликда босилади.

Қаторнинг маълум бир бўлаги ажратилиши лозим бўлса кўрсаткич ажратилиши керак бўлган қисм бир бурчагига келтирилади, сўнгра "Shift"+F3 тугмачалари босилади ва →, ←, ↑, ↓ тугмачалари ёрдамида керакли матн қисмига борилади. Ажратилган

қисмини ўчириш ёки чўнтакка олиш "Ctrl"+"F4" тугмачалари мажмуаси ёрдамида амалга оширилган. Ажратишни бекор қилиш F4 тугмаси ёрдамида бажарилади ёки менюдан **"Фрагмент"** банди танланиб, **"Enter"** тугмаси босилади, сўнгра **"Свой Выделение"** бандига кўрсаткич келтирилиб **"Enter"** босилади.

Матн қисмини ажратишни **"Фрагмент"** менюсида **"Выделить"** банди ёрдамида ҳам бажариш мумкин.

Чўнтакка олинган матн ёки матн қисмини нусхалаш ёки бошқа жойга ўрнатиш учун, кўрсаткич матн нусхаланаётган қисмига келтирилади, сўнгра **"Shift+F4"** тугмаси босилади.

Ажратилган матн қисмида шрифтни ўзгартириш ҳам мумкин:

Alt+F2 — таъкидлаш (тагига чизилган ҳолатда) режимида ўтказиш;

Alt+F3 — оғма (курсив) шрифтга ўтказиш;

Alt+F4 — Қалин шрифтга ўтказиш.

Ажратилган матн қисмини хат боши кадом форматлаш (**"Ctrl+F8"**), чапга суриш (**"Ctrl+F5"**), ўнгга суриш (**"Ctrl+F6"**), ўртага олиш (**"F8"**), абзацнинг чегарасига силжитиш (**Alt+F5**) абзацнинг ўнг чегарасига силжитиш (**Alt+F6**), чоп қилишни **"Текст"**, **"Печать"** бандлари ёрдамида бажариш мумкин.

Шрифтни ўрнатишда унинг тартибидан ҳам фойдаланиш мумкин. **"Alt+F1"** тугмачалари бир вақтда босилганда лексикон шрифт тартибини киритишни сўрайди. У ҳолда қуйидагилардан бири кўрсатилган мақсадда берилади:

0 — одатдаги шрифт;

1 — оғма курсив шрифт;

2 — қалин шрифт;

3 — қалин оғма шрифт;

4 — қуйи индекслар;

5 — юқори индекслар;

7 — грек ҳарфлари ва математик белгилар.

Лексикон матнли муҳарририда ишлаш тартибидеда қўл келадиган асосий буйруқлар қуйидаги жадвалларда ўз ифодасини топган.

1 — жадвалда меню билан ишлаш буйруқлари қамланган.

1 — жадвал

№	Функционал тугмачалар	Бажарадиган вазифаси
1.	"F1"	ёрдам сўраш
2.	"F10"	менюга кириш
3.	"Home",	менюда юриш
4.	"Enter"	менюда керакли бандни танлаш
5.	"Esc"	менюдан чиқиш
6.	"←"	чапга юриш
7.	"→"	ўнгга юриш
8.	"↑"	юқорига юриш
9.	"↓"	пастга юриш
10.	"Home"	қатордаги биринчи белгига бориш
11.	"End"	қатордаги белгининг охирига бориш
12.	"Pg Up"	бир саҳифа юқорига юриш
13.	"Pg Dn"	бир саҳифа пастга юриш
14.	"Shift — ↑"	матннинг бошига бориш
15.	"Shift — ↓"	матннинг охирига бориш

2 — жадвалда Лексиконда ишлаш тартиби ва айрим тугмачаларнинг вазифалари келтирилган.

№	функционал тугмачалар	Бажаридиган вазифаси
1.	"Ins"	белги ўрнига ёки орасига янги белги қўйиш
2.	"F9"	кирилчадан лотинча шрифтга ўтиш ва аксинча
3.	"Del"	кўрсаткич турган белгини кўчириш
4.	"Backspace"	кўрсаткичдан олдин турган белгини ўчириш
5.	"F3" ёки "Ctrl — F3"	кўрсаткич турган қаторни ўчириш матнда ажратилган қисмини
6.	"Ctrl — F3"	чўнтакка олиш
7.	"Shift — F9"	экраннинг матнли ёки графикли режими танлаш
8.	"Shift — F10"	"Аргумент" "F" "Текст" режими
9.	"Абзац", "Перенос"	сўзларни янги қаторга кўчириш режими
10.	"Абзац",	абзацнинг ўнг четини тўғрилаш режими

3 — жадвалда матннинг ажратилган қисми устида бажариладиган операциялар мажмуи келтирилган.

3 — жадвал

қаторли қисм	Бўлакли қисм	Бажарадиган вазифаси
"F3"	"Shift – F3"	ажратишни бошлаш
"←", "→"	"←", "→", "↑", "↓"	керакли қисмни ажрати олиш
"F4"	"F4"	ажратишни бекор қилиш
"Ctrl – F3"	"Ctrl – F3"	ажратилган қисмни ўчириш
"Ctrl – F4"	"Shift – F4"	чўнтакка олинган қисмни ўрнига қўйиш
"Ctrl – F5"		ажратилган қисмни чапга силжитиш
"Ctrl – F6"		ажратилган қисмни ўнга силжитиш
"Ctrl – F8"		хат боши каби қолиплаш

4 — жадвалда матнли қолиплаш (форматлаш) ўстида бажариладиган операциялар келтирилган.

4 — жадвал

№	функционал тугмачалар	Бажарадиган вазифаси
1	"F8"	кўрсаткич турган қаторни ўртага келтириш
2	"Ctrl – F8"	кўрсаткич турган матнни қатор бошидан охиригача бирор кўринишда қолиплаш
3	"Shift – F7"	кўрсаткич турган хат боши чегарасини тўғрилаш
4	"Ctrl – F2"	топилган қаторни алмаштириш
5	"Shift – F8"	саҳифаларни бўлиш

5 — жадвалда матннинг ажратилган қисминини тегишли шрифтлар билан алмаштириш операциялари келтирилган.

5 — жадвал

№	функционал тугмачалар	Бажарадиган вазифаси
1.	"Alt — F1"	шрифтни рақам бўйича қўшиш: 0 — одатдаги шрифт 1 — оғма шрифт 2 — яримқалин шрифт 3 — яримқалин оғма шрифт
2.	"Alt — F2"	Ажратиб олинган матнда таъкидлаш режимини қўшиш ва ажратиш
3.	"Alt — F3"	ажратиб олинган матнда оғма шрифтни қўшиш ва ажратиш
4.	"Alt — F4"	ажратиб олинган матнда яримқалин шрифтни қўшиш ва ажратиш


?

Бевосита компьютерда қуйидаги саволларга

амалий жавоб беринг:

1. Лексикон матн муҳарририни юкланг.
2. Экрандан менюга чиқинг ва аксинча менюдан иш столига қайтинг.
3. Лексиконда ёрдам олиш тугмасини босинг. Маълумотномани
4. Бирор матнни киритинг. Кириллча шрифтдан лотинча шрифтга ўтинг ва аксинча.
5. Матнни таҳрирланг.

- 8 Матини хотирада сақланг.
- 7 Матини дискдан экранга чақиринг.
- 8 Матн қисмлари билан ишланг.
- 8 Матини форматланг.
- 10 Матини саҳифаларга бўлинг.
- 11 Шрифтлар билан ишланг.
- 12 Ойналлар билан ишланг.
- 13 Жадвалли маълумот тузинг.
- 14 MS DOS га чиқинг ва ундан қайтинг.
- 14 Матини чоп қилинг.
- 10 Лексикондан чиқинг.





V ҚИСМ WINDOWS ОПЕРАЦИОН ТИЗИМИ



бўласиз:

**Сиз китобнинг V қисмини
мутоала қилиб, Windows 98
ҳақида қуйидаги назарий билим
ва амалий кўникмаларга эга**

- **Windows 98ни юклаш;**
- **Пуск (Start) тугмаси тавсифу;**

- Windows 98нинг иш столи ;
- Windows иш столуга янги ёрлиқлар ҳосил қилиш;
- Программы бўлимларининг вазифалари;
- Windows 98 дастурлари менюси ҳақида умумий маълумотлар;
- Windows 98 амалий дастурлари ускуналар мажмуаси тавсифи;
- "Менинг компьютерим" ёрлиги ва унинг вазифалари;
- "Менинг ҳужжатларим" ёрлиги. Файллар устуга амаллар;
- "Бошловчи" ёрлиги. Файллар жилди. Дастурларни ишга тушириш;
- Windows 98нинг ишчи дастурлари. Маълумотларни архивлаш;
- Ускуналар панелуга янги тугмалар ҳосил қилиш.
- Бошқариш панели ва унинг асосий ёрлиқлари;
- Экран ёрлиги ва унда амаллар бажариш тартиби;
- Бошловчи дастурида файл ва каталоглар устуга амаллар;
- Бошловчи дастурида файлларни ахтариш;
- Дискларни текшириш, тозалаш ва ресурсларни кўпайтириш;
- Windows 98 нинг ишчи саҳфи вазифалари;
- Windows 98 нинг айрим татбиқий дастурлари;
- Windows 98дан чиқиш.

Бошланғич маълумотлар

Windows операцион тизими Microsoft фирмаси томонидан IBM PC туридаги компьютерлар учун махсус яратилган дастур бўлиб, унинг фойдаланувчилар учун қулай бўлган имкониятлар мавжуд. Тизим кўмагида NC дастури каби файл каталог яратиш, нусха олиш, қайта номлаш, ўчириш, матнли файлларни чоп қилиш, бир вақтда бир неча каталог ва файллар мажмуаси билан яққол график режимида ишлаш мумкин. Шу боис бу дастурни айни вақтда миллионлаб фойдаланувчилар ўз амалий иш фаолиятларида кенг қўллашмоқда.

Microsoft фирмаси гарчанд Windows дастури дастлаб 1983 йилда яратган бўлсада, йилдан — йилга уни такомиллаштирмоқда. Дастлаб, Windows 3.1 версиялари, яқин ўтган даврда Windows — 95, орадан уч йил ўтиб Windows — 98 версиялари бутун жаҳонда хусусан Ўзбекистонга ҳам кириб келди. Жорий йилдан бошлаб Windows — 2000 версияси ҳам ишлатила бошланди.

Республикаimizда айни вақтда олий ва ўрта махсус билим юртлири ўқув жараёнида кўпчилик Windows 3.1 — 3.11 версиялари, Windows 95 ҳамда Windows 98 версиялари ишлатилмоқда. Шу боис, бири барча Windows дастурлари учун ягона умумий маълумотлар хусусида (гарчанд улар бир — биридан фарқ қилса — да) ҳамда Windows дастури кўмагида ишловчи WORD, Excel, Paint дастурлари ҳақида қисскача маълумот берамиз.

Windowsни юклаш ва ундан чиқиш

Windowsни юклаш учун MS DOS операцион тизими бўйруқлар сатрида win бўйруғи клавиатури орқали киритилиб Enter босилади ёки NC дарчасидан Windows каталогига кириб, win.com файли устига

Киткич келтирилиб **Enter** босилади. Натижада
ерда дастлаб **Windows** белгиси туширилган



зарварақ, сўнгра
таъминлаш дастури
очилади. Замонавий

компьютерларда
Windows нинг зикр
этилган охирги

версиялари
ишлатилаётганлиги
сабабли улар асосий
операцион тизимга
айланган. **MS DOS**

операцион тизими ва
NC қобиқ дастурлари ва
улар асносида яратилган
дастурларга эҳтиёж

бароз сусайди. Шу боис кўпчилик компьютерлар
кўчилиши билан **Windows 98** қобиқ дастури
ёввосита ишга тушади. Унинг таркибидаги бошқа
дастурларга мурожаат этиш **Пуск (Юклаш)** тугмаси
ёввосита бажарилади.

Windows дан чиқиш учун **Пуск** тугмасининг
Завершение работы бандига кириб у ерда
компьютерни ўчириш, қайтадан ишга тушириш, **MS**
DOS режимида ишга тушириш ёки компьютер
ишлашини вақтинча тўхтатиш каби ишларни
бажариш мумкин. "Alt — F4" тугмачаларни
биргаликда босиб **Windows** дан чиқиш ҳам
мумкин, бунда чиқиш ҳақидаги компьютер сўровига
ОК ни сичқонча кўрсаткиги билан танлаб жавоб
бериш зарур.

Эслатма. Айрим компьютерларда юклаш
бароси фойдаланувчи томонидан ўзгартирилган
булиши ҳам мумкин.

Windows иш столи ва унинг ёрлиқлари



1—расм. Windows 98 таъминлаш дастурининг кўриниши

Windows дастури юкланганидан кейин экранда Windows.98 дастурининг таъминлаш дарчасида "Иш столи" ҳосил бўлади (1 — расм)

Иш столида тизим ва амалий дастурларга мўлжал келувчи ёрлиқларнинг турли кўринишлари ҳосил бўлади:

- **Менинг компьютерим (Мой компьютер)** — дисклар билан ишлаш, янги файл ва каталоглар киритиш, компьютерни ва ташқи қурилмаларни созлаш каби вазифаларни бажаради.
- **Менинг ҳужжатларим (Мои документы)** — фойдаланувчининг амалий дастурларда ишланган ҳужжатлари жамланади.
- **Бошловчи (Проводник)** — файл ва каталоглар устида амаллар, файлларни излаш ва

тушириш каби вазифаларни бажаришга мўлжалланган.

■ **Портфел** — Internet тизимида фойдаланиш учун танланган ҳужжатлар сақланади.

■ **Корзина** — нокерак дастурлар, файллар ва каталоглар узил—кесил йўқотилиши олдидан бақтинча сақлаш учун мўлжалланган дастур.

Айни вақтда Windows нинг инглизча ёхуд русча версияси компьютерингизда ўрнатилган бўлиши мумкин. Windows нинг инглизча версияси компьютерингизда ўрнатилган бўлса тизим ва таъбиқий дастурлар ёрлиқлари инглизча тавсифда берилган бўлади.


Эслатма. Windows 3.1—3.11 версияларининг таъминлаш дастури Windows 95 ва Windows 98 версиялариникидан фарқ қилади.

Иш столига янги жилд ёки ёрлиқларни қўшиш учун сичқончанинг ўнг тугмаси бирор бўш жойда босилади ва ҳосил бўлган мулоқот дарчасидан **Создаъ** банди фаоллаштирилади. Натижада ҳосил бўлган иккиламчи мулоқот дарчасидан керакли бўлгани танлаб олиниб, тизим кўргазмаси бўйича янги ёрлиқ ёки жилд иш столида ҳосил қилинади. Сўнгра уларга зарурий дастурлар мажмуасини қўйлаштириш ва ном бериш орқали фойдаланишимиз мумкин.

Пуск тугмаси ва унинг бўлимлари билан ишлаш


Иш столида мавжуд ёрлиқ ва жилдлардан фойдаланган ҳолда тизим ёки амалий дастурларни бевосита фаоллаштириш ва юклаш имкониятига эга бўлишимиз. Шу билан бирга компьютер хотирасида мавжуд барча дастурларни иш столида ҳосил қилиш мақсадга мувофиқ эмас

Windows	дастуридаги
ўзгаришларни	назорат
қилади ва тасдиқлайди	
Windows	нинг барча
дастурлари рўйхати	
Web	— саҳифа учун
танланган файллар	
Охирги 15 та мурожаат	
этилган ҳужжатлар рўйхати	
Тизим ёки иш столининг	
ҳолатини созлаш	
Файл ва жилдларни	
ахтариш	
Ёрдамчи маълумотларни	
олиш	
Web — саҳифани очиш ёки	
амалий дастурларни ишга	
тушириш	
Windows дан чиқиш	
Компьютерни ўчириш ёки	
қайта ишга тушириш	



2 — расм. Пуск тугмаси тавсифи..

Бу дастурларга мурожаат этишнинг самарали усули **Пуск** (Юклаш) тугмасини ишга туширишдир. Пуск тугмаси менюси тавсифи 2 — расмдан аниқланган.




3-расм. Windows 98 да «ПРОГРАММЫ» бандида юриш

Пуск тугмаси ёрдамида Программы бўлимига кўрижаат этилганда, иккиламчи дарча ҳосил бўлиб, ондан фойдаланувчи ўзи учун зарур деб ҳисоблаган дастурларни танлаши мумкин. Бу дастурлар орасида вирусдан компьютерларни ҳимояловчи, файлларни архивлаштирувчи, Office , стандарт , шрифтовчи ва амалий дастурлар ҳисобланади. Масалан, Программы – Стандартные – Служебные багма — кетлигидан фойдаланган ҳолда диск ҳолатини назорат қилиш, тозалаш, текшириш каби ишларни амалга ошириш мумкин(3— расм).

Маъмур менюга янги бўлимлар ёки бандлар қўшиш учун Настройка бўлимида Панель задач и меню «Пуск» банди орқали панель задач мулоқотли дарчасига кириб, настройка меню қисмига ўтилади. Бу ерда Обзор... тугмаси

орқали керакли дастур таклиф этилган жадвалдан танлаб олиниб мос келувчи ёрлиқлар қўйилади



4 – расм Пуск менюсига янги бўлимлар қўшиш


Панель задач дарчасида Параметры панели задач банди масалалар сатри(экранда энг қуйи сатр)ни таҳрирлаши мумкин.

Windows дастурлари дарчаси ва менюси

Windows нинг барча дастурлари дарчада жойлашган бўлиб ўз меню сатрига эга бўлади, яъни ҳар бир дастур учун алоҳида муҳит яратилган бўлади. У ерда махсус буйруқлар ва кўрсатмалар мавжуд. Дастур ойнасининг юқори қаторида дастур панели тагида меню сатри жойлашган. Ҳар бир менюда шу гуруҳга мансуб бандлар мавжуд, бу бандлар ўз навбатида қисм-бандларга бўлинади. Қисм-бандларнинг баъзилари кўрсаткичига эга, ва улар навбатдаги дарчаларига эга бўладилар (5 – расм).

Меню билан ишлаш учун сичқонча тугмасининг меню қаторида босиш лозим, сўнгра меню ости буйруқларини кўрсатувчи тўртбурчак шаклида сичқонча очилади. Керакли буйруқни бериш учун мос буйруқ банди танланади ва "сичқонча" тугмаси босилади. Агар бошқа бирор буйруқ киритилиши учун

хатингисини бекор қилиш лозим бўлса, шу менюдан ишқари жойда сичқонча тугмаси босилади.



5 – расм. Windows татбиқий дастурлари менюси

Хусусан, Windows 98 Microsoft Access татбиқий дастурида


"Файл", "Вид", "Вставка", "Сервис", "Окно", "?"

асосий меню бўлимлари мавжуд бўлиб (5 – расм), бу уларнинг мисолида деярли барча татбиқий дастурлар учун умумий бўлган бўлимлар вазифалари билан танишиб чиқамиз.

"Файл" буйруқлар тўпламидаги бандлар қуйидаги вазифаларни бажаради(1 – жадвал).


Создать	янги файл ташкил қилишда ишлатилади
Открыть	Хотирадаги файлни экранга чиқаради
Закрывать	Экранни файлдан тозалайди
Сохранить	Файлни хотирага киритиш
Сохранить как	Файлни бирор ном билан хотирада сақлаш
Версии	Файлнинг бирор вариантыни сақлаб қолиш
Параметры страницы	Саҳифа учун ҳошия, варақнинг ўлчами, қоғозни узатиш усули берилади
Предварительный просмотр	Ҳужжатлар билан дастлабки танишув
Печать	Ҳужжатларни чоп этиш усулини аниқлаш
Отправить	Файлни танланган йўналиш бўйича жўнатиш
Свойства	Файл хоссаҳари ҳақида маълумот олиш

Жадвалда келтирилган асосий бандлар ўз навбатида иккиламчи дарчага эга бўлиб бу ерда банднинг вазифалари ва имкониятлари аниқ элтирилади. Масалан, қаралаётган қисмнинг **Свойства** банди фаоллаштирилганда (6 – расм)



6 – расм. Файл

юссулари иккиламчи дарчада файлнинг умумий
 анисаси, яратилган ҳужжатнинг муаллифи,
 таъкилотли ҳақида ахборот, ҳужжатнинг



7 – расм. Саҳифани таҳрирлаш

ўзгартирилганлиги ҳақидаги статистика ва таркиби ҳақида маълумотлар олиш мумкин.


“Правка” қисмида жорий саҳифага тегишли таҳрирлаш ишларини амалга оширувчи бандлар мужассамлашган. Бу бандларнинг вазифалари билан танишиб чиқамиз(2 – жадвал).

Правка бўлими бандлари ҳақида умумий маълумотлар

2-жадвал

1.	Отменить ввод	Олдинги ҳаракатни бекор қилади
2.	Повторить ввод	Олдинги ҳаракатга қайтади
3.	Вырезать	Саҳифанининг ажратилган қисмини хотиранинг алмаштириш (буфер) қисмига жўнатади.
4.	Копировать	Саҳифанининг ажратилган қисмининг нусхасини олишга тайёрлайди.
5.	Вставить	Ажратилган қисмни керакли жойга олиб қўяди
6.	Очистить	Саҳифани тозалайди
7.	Выделить все	Барча файлларни белгилайди
8.	Найти	Файлда керакли белги ёки сўзни топади
9.	Заменить	Бирор сўзни керакли сўз билан алмаштиради
10.	Перейти	Керакли саҳифага ўтиш имкониятини беради

Эслатма. Менюнинг қолган бандлари ва уларга тегишли қисм – бандлар ҳар бир татбиқий дастурлар учун алоҳида қўринишга ва вазифаларига эга бўлади. Шу сабабли қолган қисмлар билан ҳар бир дастурда алоҳида танишиб чиқамиз.




8 — *расм . Ускуналар панели*

Жорий дастур исм қаторининг ўнг қисмида дастурни ёпиш, дарчани кенгайтириш ёки йиғиш учун махсус тугмалар мавжуд (8 — расмда кўрсаткич берилган) ва улар сичқонча кўрсаткичи берилган фаоллаштирилади. Худди шунингдек, Windows дастурларидан фойдаланишда ускуналар панели муҳим аҳамиятга молик (8 — расм). Бу ерда берилган тугмалар меню бўлимларидаги кўпчилик вондларнинг вазифасини бажаради:

- **Верх** тугмаси уст каталогига ўтказади.
- **Вырезать** белгиланган файл (қисм ва ҳ.к.) ни алмаштириш буферига ўтказади.
- **Копировать** белгиланган қисмнинг нусхасини алмаштириш буферига ҳосил қилади.
- **Вставить** алмаштириш буферигаги объектни ишчи соҳанинг керакли қисмига жойлаштиради.
- **Удалить** тугмаси босилиши натижасида белгиланган қисм йўқотилади.
- **Свойства** тугмаси белгиланган қисмнинг хусусиятлари ҳақида маълумотни экранга чиқаради


- Вид тугмаси дарчада маълумот берилиши усулини бошқаради



9 — расм. Ускуналар панелини созлаш

Ускуналар панелидаги тугмалардан фойдаланиш учун сичқончанинг кўрсаткичи улар устига келтирилиб чап тугмаси босилади.

Ускуналар панелида янги вазифали тугмалар ҳосил қилиш учун дастур менюсида **Вид** қисмининг **Панель инструментов** бандидаги **Настройка** бўлимига мурожаат қилинади. Натижада экранда иккиламчи дарча ҳосил бўлиб (9 — расм), у ерда **Панель инструментов**, **Команды** бандларидан фойдаланган ҳолда жорий дастурнинг **Меню** қисмлари ёки ускуналар панелига ўзгартиришлар киритиш ва янги вазифали тугмалар ҳосил қилиш мумкин. Масалан, ускуналар панелида янги тугмалар ҳосил қилиш учун **Настройка (Созлаш)** нинг **Панель инструментов** даги керакли қисмга сичқончанинг кўрсаткичи олиб келиниб,




10— расм. Тизим дастурлари мулоқотли дарчаси

чан тугма босилган ҳолда, ускуналар қаторида керакли бўлимлар ҳосил қилинади.

Одатда тизим дастурлари дарчасида фойдаланувчи томонидан қатъий ўзгартиришлар киритилмайди. Шу сабабли уларга хос бўлган дарчалар мулоқот учун мослаштирилган бўлади. Асосан, **Махсус имкониятлар (Специальные возможности)** дастурига мурожаат этилганда дарча 10— расм кўринишига эга бўлиб, у ерда ногиронлар учун керакли мослаш ишларини амалга ошириш имконини бўлади.

Менинг компьютерим дастурида ишлаш

Менинг компьютерим ёрлиги файл дискларни кўриш учун қулайлик туғдиради ва у ердан қуйидаги қисм ёрлиқлар ҳосил бўлиши мумкин.



- Қаттиқ дискни кўриш
- Тармоқдаги дискни кўриш
- Компакт — дискни кўриш
- Компьютер тизимини созлаш
- Чоп этишни созлаш
- Web — саҳифасига биркитилган ҳужжатлар
- Тармоқдаги компьютерлар билан боғланиш
- Жиддларнинг мазмуни билан танишиш



Бирор дискнинг мазмуни билан танишиш учун
столидаги **Менинг компьютерим** ёрлиғига
сичқончанинг кўрсаткичи олиб келиниб чап тугма
марта босилади, натижада экранда ҳосил бўлган
мурожаат этилади (11 — расм).

Бу дастур менюси бўлимлари Windows учун
бўлган бандлардан тузилган. Шу сабабли бу
дастур менюси устида тўхталмаймиз. Мазкур
дастурдаги асосий ёрлиқлардан бири **Бошқариш**
панели бўлиб, унинг устида сичқонча кўрсаткичи
нагандан сўнг фаоллашади.




Бошқариш панели

Бошқариш
панели компьютерни
фойдаланувчининг
эҳтиёжига боғлиқ
равишда бажарила —
ётган ишлар кўлами
ва мақсадидан келиб
чиққан ҳолда бирор
кўринишни энг
мақбул усулда ҳосил
қилиш имконини
беради.

Бу дастур
менюси амалий


дастурлар каби бўлиб, дастлабки иккита бўлимида
дастурдаги бандлар (1,2 — жадвал) қатнашади. Вид
юининг бандлари номлари ўхшаш бўлса — да
амалга ошираётган вазифалари дастурнинг ички
таърифларига мослаштирилган.



Ускуналар панели;
Саҳифа ҳолатини аниқлаш;
Саҳифани ишчи кўриниши;
Интернетга мурожаат;

Ёрлиқни йирик кўриниши;
Ёрлиқни майда кўриниши;
Дастурларнинг рўйхати;
тўла маълумотли кўрин.
Ёрлиқларни тартиблаш;
Ёрлиқни жойлаштириш;
Ишчи соҳани янгилаш;
Жилдларнинг хоссаларини
аниқлаш;

Масалан, **Панель инструментов** бандиш
мурожаат этиб, дарчадаги ёрлиқларни турли



12 — расм. Жилд ва дискларни шарҳлаш

Тўғрида экранда ҳосил қилишимиз мумкин.


Панелы обозревателя бандидаги папки қисм банди фаоллаштириш орқали қаттиқ дискдаги датирий жилднинг моҳияти ва мазмунини бонқариш панелининг ишчи саҳифасига амдариншимиз мумкин(12 – расм).

Бонқариш панелидаги ёрлиқлар вазифаси ва вазонинглари ҳақида қисқача тўхталиб ўтамиз:



Мультимедиа

Аудио, видео ва компакт – дисклар учун дастурларни ўрнатиш.



Сеть

Компьютерни локал тармоқларда ишлаши учун мослаштириш.



Шрифты

Тизим ва амалий дастурларда ишлатиш учун шрифтлар ўрнатиш.



Система

Жорий компьютер тизими ҳақида умумий маълумотлар жамланган.



Экран

Экран кутиш ҳолатидаги тасвирни танлаш, дарчаларни расмийлаштириш.



Модемы

Компьютерни ташқи тармоқларга улаш.



Свойства обозревателя

Интернет тармоқлар билан боғланишда хавфсизликни таъминлаш.



Установка оборудования

Янги қурилмаларни улаш учун керакли дастурни ўрнатиш.




Дата и время

Компьютерга жорий сана ва вақтни ўрнатиш.



Пароли

Компьютерда фойдаланувчилар фаолияти тартибга солиш, калит ўрнатиш



Специальные возможности

Ногиронлар учун махсус имкониятлар яратиш



Язык и стандарты

Компьютер ишлатилаётган мамлакат учун пул, ўлчов бирлиги танлаш





Пользователи

Компьютерда кўп фойдаланувчилик ҳолатини ташкил қилиш

Тавсия этилаётган ҳар бир дастур ўзининг мулоқот дарчасига эга бўлиб, у ердаги кўрсатмалар асосида компьютернинг имкониятига кераклик ўзгартиришлар киритиш мумкин. Юқорида қайд этилган дастурларнинг орасида **Экран, Система, Специальные возможности, Шрифты, Установка и удаление, Принтеры** ёрлиқлари билан фойдаланувчи бошқаларига нисбатан кўпроқ мурожаат қилади.

Экран ёрлиғи

Дастурга мурожаат этилганда мулоқотли дарча ҳосил бўлиб, унда **Фон, Заставка, Оформление, Эффекты, Интернет, Настройка** каби қисмлар мавжуд.



11 - *рисм. Иш столининг кўриниши, ёрлиқларни ўзгартириш ва дарча қисмларининг ранглари танлаш*



Фон фаоллаштирилганда иш столидаги кўринишнинг берилган файллар рўйхатидан танлаб олинган имконияти ҳосил бўлади. Худди шу сингари **Оформление** қисми фаоллаштирилиб дарчаларнинг рангларини, шрифтларини танлаш ва ўзгартириш мумкин(13 — расм). Бунинг учун танлаб олинган дарча бўлагининг ранги ва ёзувлари **Размер** ва **Цвет** тугмалари орқали ўзгартирилади. **Эффекты** қисми орқали иш столидаги дастур учун белгиланган ёрлиқларнинг кўринишини ўзгартириш мумкин. Бунинг учун **Сменить значок** тугмасига мурожаат қилинади ва экранда иккиламчи мулоқот дарча ҳосил бўлиб у ердан керакли ёрлиқ нишони танлаб олиниб, белгиланган дастурнинг янги ёрлиғи сифатида ишлатилиши мумкин. **Настройка** банди ёрдамида экрандаги рангларнинг жилоланишини яхшилаш, янги ранглار ҳосил қилиш, шакллари рақамлашда тўлдириш усулини танлаб олиш мумкин бўлади.

Ҳужжатларни чоп этиш


Бошқариш панелининг **Принтеры** ёрлиғи мурожаат қилиш орқали компьютерга янги принтер улаш имкониятини яратиш ёки мавжуд принтер ишини тартибга солиш мумкин. Бунда чоп этишни тўхтатиш — **Приостановить печать** ёки навбатни бекор — **Очистить очередь** қилиш мумкин. **Свойства** банди орқали қоғозларнинг ўлчамини, узатиш ва чоп этиш усулини танлаш, тасвирларни (**Графика**) ҳосил қилиш усулини белгилаш каби бир қатор амалларни бажариш мумкин.

Установка принтера қисми орқали компьютерга янги принтерни улаш учун созлаш ишларини бажаришимиз мумкин, бу ерда мавжуд рўйхатдан

Фикс диск юритувчидан киритиш орқали керакли
принтер адаптерини ўрнатиш ва



инги принтер учун портларни танлашимиз мумкин
бўлади.



13 – расм. Бошловчи дастурининг дарчаси



14 – расм. Файлларнинг турини аниқлаш

Бошловчи. Файл ва жилдлар устида амаллар

Бошловчи (Проводник) дастури Windows — 98 тизимида моҳияти бўйича Norton Commander қобиқ дастурининг файл ва каталоглар устида бажариладиган тегишли буйруқларни ўзида муассамлаштирган. Дастурнинг ўз меню сатри бўлиб, унинг бандлари **Менинг компьютерим** менюсидан деярлик фарқ қилмайди ва номланиши айнан сақланган. Лекин таҳририй дарча икки қисм, ўнг ва чап бўлакларидан иборат. Дарчанинг чап қисмида жилдлар дарахти, ўнг қисмида эса белгиланган жилдга мос кичик жилд ва файллар рўйхати келтирилган (13 — расм). Жилдлар дарахтида ҳар бир ёрлиқ олдидаги + белгиси жорий жилд кичик жилдга эга эканлигини, — белгиси жилднинг тўла очилганлигини билдиради.


Бирор файлни бир жилддан иккинчисига ўтказиш учун, белгиланган файл сичқончанинг курсаткичи олиб келиниб, чап тутма босилган ҳолда силжитилиб, ўтказилаётган жилднинг устига олиб борилади ва тутма қуйиб юборилади. Бирор файлнинг нусхасини олиш учун юқоридаги амал клавиатурадаги Ctrl тутмаси босилган ҳолда амалга оширилади. Файл ёки жилдлар гуруҳини белгилаш учун, уларнинг ёнида сичқончанинг чап тутмаси босилади. Натижада ажратиб олинган гуруҳ ёрлиқларининг ранги ўзгаради. Улардан нусха олиш ёки кўчириш юқоридагига айнан ўхшаш бўлади. Бошловчи дарчасида барча файллар бажараётган папифаларининг моҳиятидан келиб чиққан ҳолда мос ёрлиқлар орқали ифодаланади. Бу ёрлиқларнинг тури кўп бўлиб, уларни моҳиятини тушуниш учун **Менюнинг Вид** қисмидаги **Свойства** банди фаоллаштирилади.

Ҳосил бўлган мулоқотли дарчада **Типы файлов** бўлими орқали керакли маълумотга эга бўлишимиз мумкин. Бирор керакли файлни топиш учун **Менюнинг Сервис** қисмидаги **Поиск** бандига мурожаат қилиниб, ҳосил бўлган мулоқотли дарчада изланаётган файлнинг белгиси киритилади.

.EXE қўшимчага эга бўлган файл ёрлиқларини фаоллаштириш орқали мазкур дастурни ишга тушириш мумкин.

Бошловчи дастурига ўхшаш вазифаларни **Менинг ҳужжатларим** ёрлиғини фаоллаштириш орқали ҳам бажариш мумкин. Бу ерда алоҳида олинган фойдаланувчи томонидан ҳосил қилинган ҳужжатлар мажмуаси жамланган бўлади.

Менинг ҳужжатларим тизим дастури менюсининг **Файл** қисми бандлари қуйидаги кўринишга эга бўлади.



диск ва жилдни очиш;

файлларни чоп этиш;

янги файл ҳосил қилиш;

файл мазмунини тез кўриш;

файлни таржима қилиш;

файлни архивлаш

архивга қўшиш

дискни вирусдан тозалаш;

гаг архивига узатиш;

файлни манзилга узатиш;

янги файл ҳосил қилиш;

янги ёрлиқ ҳосил қилиш

файл ва жилдни йўқотиш;

файлни қайта номлаш;

файл ҳақида маълумот ;

Демак, **Менинг ҳужжатларим** дастурида меню **Файл** қисмининг бандлари умумий ҳолдан бир мунча фарқ қилади. Шу билан биргаликда жорий ҳолатнинг имконияти ва вазифаларидан келиб чиқиб, Менинг ҳужжатларим дарчасида меню бўлимларининг баъзи бандлари бўлмаслиги ҳам мумкин. **Файл** бўлимининг **Отправить** бандидан фойдаланиб 1- жилд ва файлларнинг нусхаси юмшоқ ёки қаттиқ дискларда ҳосил қилиниши мумкин.

Баъзи ҳолларда татбиқий дастурларга мурожаат қилмасдан файлнинг мазмунини аниқлаш зарур бўлади. Бундай ҳолларда **Быстрый просмотр** бандидан фойдаланишимиз мумкин.

Файл ва жилдларни ҳажмини қисқартириб сақлаш учун **Архив** лашинг турли усуллариға мурожаат қилишимиз мумкин.

Файл бўлимининг бошқа бандлари юқорида таъкидланган умумий ҳоллардан деярлик фарқ қилмайди.

Windows нинг ёрдамчи дастурлари

Windows да бажариладиган вазифаларнинг кўлами жуда кенг бўлиб, уларни амалга оширишда фойдаланиш учун қулай ва тузилиши содда бўлган ёрдамчи дастурлар мавжуд.

Калькулятор.

Калькулятор — чўнтак калькулятори вазифаларини бажариб икки хил режимда: оддий ва муҳандис вариантыда ишлаши мумкин (14— расм). Оддий калькулятор тўртта арифметик амални бажаради, берилган қийматлардан илдиз чиқаради, фоизни ҳисоблайди ва тескари қийматни аниқлайди.

Муҳандис калькулятори бундан ташқари тригонометрик ва мантиқий функцияларни ҳисоблайди, қиймат ва бурчакларни турли саноқ тизимларига ўтказиш ва бошқа вазифаларни бажаради.



14 –расм. Оддий ва муҳандис калькулятори

Калькуляторни ишга тушириш Пуск тугмасида Программы, Стандартные кетма – кетлигида Калькулятор банди фаоллаштирилади.

Мазкур дастур ўз менюсига эга бўлиб , у учта бўлимдан иборат: Правка, Вид ва Справка. Правка бўлими ёрдамида киритилаётган ифодаларни

нускасини олиш зарур бўлган жойларга қўйиш мумкин. Вид бўлимида калькуляторнинг оддий ва муҳандислик кўринишлари танланади. Справка бўлимида калькуляторни самарали ишлатиш учун зарур маълумотлар жамланган.

Калькуляторнинг қийматларни киритиш дарчасидан сўнг қийматларни 16,10,8 ва 2 лик саноқ тизимларига ўтказиш ва бурчакларни радиан ва градусларда бериш учун мўлжалланган Hex, Dec, Oct, Bin тугмалари алоҳида қаторда жамланган. Бир саноқ тизимидан иккинчисига ўтишда ҳақиқий сонларнинг каср қисми ташлаб юборилади.

Калькулятор функционал тугмаларининг вазифаларини ва клавиатурада мос тугмаларни жадвал кўринишида акс эттирамиз.

3-Жадвал

Тугма	Клавиш	Вазифаси
Sta	Ctrl+S	Статистик ҳисоб ва Ave S Sum ва dat ни ишга тушириш
Ave	Ctrl+A	қийматлар, Inv +ave эса квадратлар ўрта арифметигини ҳисоблаш.
Sum	Ctrl+T	қийматлар Inv + Sum квадратлар йиғиндиси ҳисоблаш.
S	Ctrl+D	қийматлар ўртача фарқланишини ҳисоблаш
Dat	Ins	Қийматни статистика дарчасига киритиш.
Inv	I	Тригигонометрик, статистик, да – ражали функцияларнинг тескари – сини аниқлаш.
Hyp	H	Sin,cos,tan функцияларни гиперболик кўринишга ўтказди.
Mc	Ctrl+L	Хотирадаги қийматни йўқотади.
Mr	Ctrl+R	Хотирадаги қийматни кўрсатади.

Ms	Ctrl+M	қийматни хотирага киритади
M+	Ctrl+P	қийматни хотирада қўшади
F-E	V	қийматни табиий экспоненциал кўриниши
dms	M	10 ли санок тиз.бурчакни град – мин – сек ўтказиш.
x^y	y	x ни у даражага кўтариш
1/x	r	x га тескари қийматни топиш
n!	!	Факториални ҳисоблаш
Mod	%	Қолдиқни ҳисоблаш
And	&	Мантиқий кўпайтириш
Or	 	Мантиқий қўшиш
Xor	^	Инкорли мантиқий қўшиш
Lsh	<	Чапга разрядли силжитиш
int	;	Ҳақиқий сонни бутин қисми

Эслатма. Вазифаси белгиланиши орқали аниқ кўрсатилган тугмалар устида тўхталмадик.

Калькуляторда амал бажариш тартиби ҳақида қисқача тўхталиб ўтамыз:

Оддий ҳисоблашларни бажариш.

1. Биринчи қийматни киритинг.
2. Арифметик амал тугмаларини босинг.
3. Кейинги қийматни киритинг.
4. Қолган оператор ва қийматларни киритинг.
5. = тугмасини босинг.

Статистик ҳисоблашларни бажариш.

1. Биринчи қийматни киритинг.
2. Sta ва Dat тугмаларини кетма – кет босинг.
3. Dat тугмасини ҳар сафар босиб қолган қийматларни киритинг.
4. Sta тугмасини босинг.
5. Зарурий статистик функциянинг тугмасини босинг.


Муҳандислик ҳисоблашларини бажариш.

1. Санок тизимини танланг.

2. Биринчи қийматни киритинг.
3. Керакли операторни танланг.
4. Кейинги қийматни киритинг.
5. Кейинги оператор ва қийматларни киритинг.
6. = тугмасини босинг.

Шундай қилиб калькулятор ёрдамида жуда мураккаб бўлмаган статистик ва муҳандислик ҳисобини бажариш мумкин.

Stylus — таржимон дастури




15 — расм. Stylus дастури таржасининг умумий кўриниши.

Мазкур дастур ёрдамида файлда жойлашган ёки бевосита киритилган матнларни таржима қилиш мумкин, бунинг учун Stylus менюси бўлимларидан фойдаланилади (15 — расм).

Мазкур дастур менюси бўлимлари моҳияти жиҳатидан Windows нинг амалий дастурлари

менюсига деярли ўхшаш. Фарқланиш **перевод** ва **словари** бўлимларида мавжуд бўлиб, бу ерда таржима қилиш учун луғатлар мажмуаси берилган, ундаги таржима қилиш усули танланади.

Меню қуйисида жойлашган ускуналар панели ёрдамида зарурий вазифалар тез ва ўнғай амалга оширилиши мумкин. (16 — расм)



16 — расм . Ускуналар панелининг вазифалари бўйича тақсимланиши.


Stylus дастурининг маълумот панели

Вид бўлимидаги **Информационная** панель мазкур панели дарчанинг пастки қисмда ҳосил қилади.

Маълумот панели таркибига урта қўйилма киради ва улар сичқоннинг ўнг тугмасини босиш орқали чақирилади.

Ишлатилувчи луғатлар — **Используемые словари** таржима қилишда фойдаланишимиз мумкин бўлган ва компьютер хотирасидаги мавжуд луғатлар рўйхатини келтиради.

Незнакомые слова қўйилмаси мавжуд луғатларда аниқланмаган номаълум сўзлар



руйхатини беради. Бу сўзларни таржима қилмасдан
ахирада сақлаш учун **зарезервированные слова**
қўйилмасига ўтказилади.

Зарезервированные слова қўйилмасида таржима
қилиниши зарур бўлмаган(масалан, Windows) сўзлар
руйхати сақланади.

Ҳужжатни таржима қилиш.

1. **Файл** менюсидан **Открыть** бандини танланг.

Таржима учун ҳужжат турли хил форматларда
борилиши мумкин ва улар компьютер учун қулай
форматларга ўтказилади..

2. **Открыть** мулоқотли дарчасининг матнлар
ҳоҳасидан керакли файлни танлаб олинг ва **Открыть**
тугмасини босинг.

3. **Конвертировать файл** мулоқотли дарчасида
таржима қилиш йўналиши аниқланади ва бошланғич
матн экранда ҳосил бўлади.

4. Ҳужжат таржима қилиш учун тайёр. **Перевод**
бўлимида **Весь текст** банди фаоллаштирилгандан
сўнг экранда ўнг дарчада бошланғич ҳужжат, чап
дарчада эса унинг таржимаси ҳосил бўлади .

5. **Файл** бўлимида **сохранить** банди орқали
таржима бирор ном остида сақлаб қўйилади.

Натижада таржима қилинган ҳужжат керакли
форматда ҳосил бўлади ва уни бирор матн
муҳарририда қайта ишлаш мумкин.

Юқорида келтирилган ёрдамчи дастурлардан ташқари фойдаланувчининг шахсий блокнотини ташкил қилиш, тадбиркорларнинг вақтини тўғри тақсимлашга ёрдам берувчи, маърузалар учун слайдлар ҳосил қилувчи, муסיқа эшитиш дастурлари мавжуд. Ҳар бир фойдаланувчи ўз олдига қўйган вазифалардан келиб чиқиб, бу дастурлар билан алоҳида танишиб чиқиши мумкин.



● Бевосита компьютерда қуйидаги саволларга амалий жавоб беринг:

1. Windows 98ни юкланг.
2. Пуск (Start) тугмасини босинг, уни тавсифини аниқланг.
3. Windows 98 иш столида янги ёрлиқлар ҳосил қилинг.
4. Программы бўлимларининг вазифалари билан танишинг.
5. Windows 98 дастурлари билан танишинг.
6. Windows амалий дастурларидан бирини юкланг.
7. Ускуналар панелида янги тутмалар ҳосил қилинг.
10. Менинг компьютерим ёрлиғининг вазифаларини аниқланг.
11. Менинг компьютерим дастурининг менюси асосий бўлимлари билан танишинг.
12. Бошқариш панели ва унинг асосий ёрлиқлари вазифаларини аниқланг.
13. Экран ёрлиғи ва унда амаллар бажариш тартибига аҳамият беринг.
14. Бошловчи дастурида файл ва каталоглар устида ҳар хил амаллар бажаринг.
15. Бошловчи дастуридан файлларни ахтаринг.
16. Windows 98дан чиқинг.



VI қИСМ

Microsoft Word

Microsoft Word 97
матн муҳаррири
Хужжатларни
яратиш ва
таҳрирлаш



■ **Сиз китобнинг VI қисмини мутоала қилиб, Word матн муҳаррирининг имкониятлари билан танишасиз ҳамда қуйидаги назарий билим ва амалий кўникмаларга эга бўласиз:**

- **WORD ни ишга тушириш;**

- *Word* нинг меню буйруқлари билан танишиш;
- Маълумотларни кириштиш;
- Кирилган маълумотни дискка файл шаклида ёзиш;
- Дискдан файлни экранга чақириш;
- Матнни таҳрирлаш ва хотирада сақлаш;
- Таҳрирланган қисмни бекор қилиш;
- Матн қисмини ажратиш, уни қирқиб олиш ва махсус жойга нусхалаш;
- Қуюқ, огма (курсив) ва оғатдаги шрифтлар билан ишлаш;
- Шрифтларни ўзгартириш (матндаги белгиларни катталаштириш ва кичиклаштириш);
- Матнни саҳифаларга бўлиш;
- Матнни чапга, ўнгга ёки ўртага суриш;
- Махсус символлар билан ишлаш (математик, кимёвий формулалар билан ишлаш);
- Жагвал ташкил этиш ва уни маълумотлар билан тўлдириш;
- Формула ва функциялар билан ишлаш;
- Матнга график ва расмлар қўйиш;
- Матнни чоп қилиш;
- *Word* матн муҳарриридан чиқиш.

Умумий маълумотлар

Word — Windows амалий дастурларидан ҳисобланиб, матнли ҳужжатларни тузиш, кўздан кечириш, таҳрир қилиш ва чоп этиш учун хизмат қилувчи ва Windows иловалари гуруҳига киради.

Word — матнли ва тасвирий маълумотлар устида юздан ортиқ операцияларни бажарувчи ва матнли дастурлар синфига кирувчи энг

танилган амалий дастурлардан бири бўлади.

Word ёрдамида ихтиёрий кўринишдаги ҳужжатни жуда тез ва юқори сифатли тайёрлаш мумкин. Дастурнинг яна бир қулайлик томони шундан иборатки, унда бир нечта ҳужжатлар билан ишлаш, яъни уларни қўшиш, бирдан иккинчисига айлантириш, ҳарфларни алмаштириш, матн ёнига тасвир қўйиш, ҳарфларни илгарилаш шаклда етарлича янги форматда чоп этиш мумкин.

Шунга қарамадан **Word** — ҳам айрим "камчиликлар" дан ҳоли эмас. Масалан: Математик формулалар ва Кимёвий формулаларни киритишда янги қийинчиликлар мавжуд. Бундан ташқари жуда мураккаб таркибли полиграфик (атласлар, албомлар, журнал муқовалари) материалларини тайёрлаш учун фойдаланиш ўнғай эмас.

Word ни ишга тушириш ва ундан чиқиш

Word дастури одатда дастурлар диспетчерининг Microsoft Office бўлимида жойлашган бўлади. **Word** дастурини ишга тушириш учун сичқонча курсаткичини **Word** ёрлигининг устига келтириб, унинг чап томони тутмачасини икки марта босиб, стандарт усулда ишга тушириш мумкин.

Windows 98да **Word**ни ишга тушириш учун «ПУСК» тутмаси ёрдамида «ПРОГРАММЫ» бандига кирилади ва сўнгра Microsoft **Word** сичқоннинг курсаткичи ёрдамида танланади ва унинг чап тутмаси босилади. Натижада экранда дастлаб Microsoft **Word** эскизи туширилган ойна, сўнгра Microsoft **Word** нинг иш столи ҳосил бўлади(1 — расм).

Дастурдан чиқиш қуйидаги ихтиёрий беш усулда бажарилиши мумкин:

- Ойна иловасини тизим менюси бошига келтириб, икки марта босиш билан;
- Ойна иловасининг тизим менюси очиб ва Closure (закрыт) буйруғини танлаш;
- [Alt]+[F4] клавиатура тугмачаларини биргаликда босиш;
- [Ctrl]+[Esc] клавиатура тугмачаларини биргаликда босиб;
- [File — Exit] (файл — выход) горизонтал менюдаги буйруқларни танлаш.



1—расм. Microsoft Word
иш столининг умумий кўриниши

Агар **Word** ойнасини ёпиш пайтида ҳужжатга янги ўзгаришлар киритилган бўлиб, уни дискда сақланмаган бўлса, экранда "**Хотители вы сохранить изменения в документе ?**" деган савол чиқади, у ҳолда ўзгаришни дискда сақлаш учун "**Да**", ўзгаришни сақламаслик учун "**Нет**", ёки таҳрир қилишни давом эттириш учун "**Cancel-Отмена**" тугмачалари танланади.

Word менюсининг бўлимлари

Бу дастур ўз муҳитига эга бўлиб, бажарилаётган амаллар меню қисмлари орқали тартибга солинади.

Менюқуйидаги қисмлардан иборат:

Файл, Правка, Вид, Вставка, Формат, Сервис, Таблица, Окно, ?.

Бу қисмларнинг ичида **Файл** ва **Правка** бўлиmlари барча бандлари **Windows** нинг барча амалий дастурларидаги каби умумийдир. Менюнинг **Файл** бўлимида янги ҳужжатни тайёрлаш учун янги файл очиш, олдинги сақланган файлларни хотирадан қидириш, жорий файлни ёпиш, тайёрланган ҳужжатни дискка ёзиш, янги ойнадаги ҳужжатга ном бериб сақлаш, барча ойналардаги ҳужжатларни сақлаш, керакли файлни қидириб топиш, саҳифалар тартибини ўзгартириш, матннинг саҳифада қандай жойлашганлигини олдиндан кўриш, матнни (матрицавий, лазерли) принтерларда бир нечта нускада, агар зарурат бўлганда матннинг танланган жойини чоп этиш, охирги 4 та таҳрирланган файллар номини кўриш ҳамда **Word** матн муҳарриридан (таҳрирчисидан) чиқиш каби бир қатор амалларни амалга ошириш мумкин.


Менюнинг **Правка** бўлимида бажарилган операцияни рад этиш ва қайта такрорлаш, белгиланган жойни қирқиб олиш ва керакли жойга

қўйиш, танланган жойни ўчириш, ҳужжатнинг барча жойини танлаш, матндан керакли сўзни излаб топиш ва уни алмаштириш каби ишларни амалга ошириш мумкин.

Қолган бўлимлар Word таҳрирчисининг саҳифаси устида зарурий вазифаларни бажаришга мўлжалланган.

Вид бўлими. Ҳужжатларнинг турли кўринишлари

Менюнинг Вид бўлими фаоллаштирилганди саҳифаларнинг турли хил кўринишларини ҳосил қилиш мумкин. Бу бўлимда ҳосил бўлган бандлар моҳияти қуйидагича:



оддий ҳужжатларни киритиш;

ҳужжатларни экрандан ўқиш;

саҳифани чоп этишга мослаш;

ҳужжатнинг тузилишини кўриш;

асосий ҳужжатни таҳрирлаш;

ускуналар панелини созлаш;

саҳифа ўлчамини белгилаш;


ҳужжатнинг электрон тузилиши;

колонтитулга ўзгартишлар киритиш;

экранни саҳифа билан тўлдириш


ҳужжатни экрандаги масштаби.

Вид бўлимининг дастлабки учта банди ёрдамида ҳужжатларнинг экрандаги турли кўринишларини ҳосил қилиш мумкин




2 — расм. Ҳужжатларнинг оддий кўриниши

2 — расмда ҳужжатларнинг экрандаги энг оддий кўриниши берилган. Бу кўринишда ҳужжат саҳифаларга бўлинмайди. Ҳужжатларни чоп этиш усулини экранда ҳосил қилиш учун **Разметка страницы** банди фаоллаштирилади. Бу ҳолда



3 — расм. Ҳужжатнинг саҳифаланган кўриниши.

ҳужжат саҳифаларга ажратилган, хошиялари ва сўз боши белгиланган кўринишда экранда ҳосил булади (3 – расм). Шунинг билан биргаликда ҳужжат хотирада кўп жой эгаллайди, натижада тасвирли



4 – расм. Ҳужжатнинг электрон кўриниши

саҳифаларни варақлаш учун кўп вақт сарфланади.

Компьютер экранда ҳужжатни кўздан кечириш ва таҳрирлашни осонлаштириш учун **Электронный документ** бандига мурожаат қилинади.

Натижада ойнада иккита дарча ажралади ва ўнг дарчада саҳифа, чап қисмида саҳифаларнинг дастлабқи сатри берилиб, улар ёрдамида ҳужжатнинг ихтиёрий қисмига тезкорлик билан ўтиш имконияти мавжуд (4 – расм). Бунинг учун сичқонча кўрсаткичини чап дарчадаги керакли сатрга олиб келиб, сичқоннинг чап тугмаси босилиши зарур.


Ҳужжатни расмийлаштириш ва саҳифага тасвирлар тушириш

Меню нинг Вставка бўлими ёрдамида ҳужжатни саҳифалаш, саҳифаларни рақамлаш, номлаш ва уларга

амаллар жойлаштириш каби вазифаларни амалга ошириш мумкин. Бунинг учун бўлимнинг қуйидаги амалларидан фойдаланилади:

Формат Сервис Таб.	
Разрыв...	саҳифанинг жорий қисмини бўлаклаш;
Номера страниц...	Саҳифаларни рақамлаш;
Дата и время...	Ҳужжатнинг ёзилиш санаси ва вақти;
Автотекст	Саҳифага матнларни қўшиш;
Поле...	Ҳисоблаш учун бўш жойлар ҳосил қилиш;
Символ...	Клавиатурада йўқ белгини киритиш;
Примечание	Эслатмаларни қўшиш;
Сноска...	Саҳифага иловани қўшиш;
Название...	Расм ва жадвални номлаш;
Перекрестная ссылка...	Кесишувчи мурожаат;
Оглавление и указатели...	Мундарижа ва кўрсатмалар;
Рисунок	Ҳужжатга расм ва тасвирларни тушириш;
Подпись	Тасвирдаги устки ёзувлар;
Файл...	Файл мазмунини қўшиш;
Объект...	Саҳифада расм, формула ҳосил қилиш;

Шарҳланган бандларнинг баъзилари иккиламчи дарчаларга эга. Масалан, **Символ** бандига мурожаат этилганда, экранда клавиатурада мавжуд бўлмаган белгилар рўйхати ҳосил бўлади (5 — расм). Бу рўйхатда грек, араб алифбоси, махсус белгилар жойлашган.



5—расм. Белгиларни тушириш

Зарур белгини ҳужжатга тушириш учун рўйхатдаги шу белги устига сичқончанинг кўрсаткичи олиб келиниб, чап тугма икки марта босилади. Худди



6 – расм. Саҳифага тасвир ҳосил қилиш

шунингдек, саҳифага тасвирларни тушириш учун булимнинг **Рисунок** бандига мурожаат қилинади,



7 – расм


натижада экранда тасвирлар рўйхати ҳосил бўлади. Танлаб олинган рўйхатдаги тасвирлардан бирортасининг устига сичқонча кўрсаткичи олиб келиниб, чап тугма икки марта босилгандан кейин саҳифанинг курсор турган қисмида тасвир ҳосил бўлади. Бу тасвир устида таҳрирлаш ишларини амалга оширишимиз мумкин. Масалан, тасвирнинг ўлчамларини ўзгартириш учун, тасвир (7 — расм) устида сичқонча тугмаси босилгандан сўнг, кўрсаткич чегарасига олиб келиниб, тугмача босилади ва чегара керакли жойга силжитилади.

Ҳужжатни форматлаш, шрифтларни ўзгартириш

Матн компьютер хотирасига Кирилтилгандан сўнг, уни босмага энг қулай ва чиройли тартибда, ҳужжатнинг мазмунини бўрттириб кўрсата оладиган кўринишда тайёрлаш зарур бўлади. Бу вазифани Меню нинг **Формат** бўлими амалга оширади. Унинг бандлари моҳияти қуйидагича:

А Шрифт...	шрифтни танлаш
¶ Абзац...	сўз боши, ҳошия, форматлаш
☰ Список...	Матнни маркерлаш;
Границы и заливка...	матнни чегаралаш ва ранглаш
☰ Колонки...	матнни устунларга бўлиш;
Табуляция...	матнни текислаш;
Буква...	сўзбоши бош ҳарфини танлаш;
☞ Настройка текста...	ёзилиш йўналишини танлаш;
Регистр...	бош ёки кичик ҳарфни танлаш;
🏠 Автоформат...	ҳужжатни автоформатлаш;
Библиотека стилей...	ҳужжатни расмийлаштириш;
Стиль...	матнни ёзилиш усулини танлаш;

Бу бўлимниг **Шрифт** бандига мурожаат қилинганда, ҳарфларни тури, ўлчами, ранги, ёзилиш усулини танлашга доир мулоқотли дарча очилади. 8-расмда кўриб турганингиздек, мулоқотли дарча ўзининг меъносига эга. Шрифт банди ҳарфларнинг ёзуричилигини танлайди. Интервал банди ёрдамида ҳарфлар ва сатрлар орасидаги интерваллар танланади.



8 — расм Шрифтларни танлаш.




Аннимация бўлими ёзувларнинг жилоланишини ҳосил қилиб беради.

Абзац бўлими фаоллаштирилганда ҳосил бўлган мулоқотли дарча ёрдамида ҳошиялар, сўз боши учун ўлчамлар

танланади, матннинг саҳифада жойлашиши аниқланади.

Список бўлимида абзацлари кўп босқичли маркерлаш усулини танлаб олишимиз мумкин (9-расм).



9 – расм. Абзацни маркерлаш



10 – расм. Чегаралаш ва ранглаш

Формат бўлимининг **Границы и заливка** банди матн бўлаklarини чегаралаш ва чегараланган қисмларни ранглаш усуллари танлаш имконини


эртади(9 — расм). Бу мулоқотли дарчадан фойдаланиб амалга оширилиши мумкин бўлган вазифалар 10 — расмда яққол кўрсатилган. Бу ерда чегаралаш чизиқларнинг қалинлиги, турланиши, рангланиши, чегараланган соҳани ранглаб кўчиришнинг хилма — хил вариантларини танлаш имконияти жуда кенг. Масалан:

"Информатиканинг ҳақида"ги, "Эҳсон учун" ва "Маълумотлар базасининг ҳуқуқий ҳалли" ҳақидаги "Алоқалар ҳақидаги" қонунлар билан Ўзбекистон Республикасининг 2011 йилдаги информатизацияни қайта қарор қилишнинг миллий дастуру ва телекоммуникацион тармоқни ривожлантириш ҳақидаги қонунлари эътиборга олинади.

Баъзи ҳолларда, масалан, рўзномаларда буюк ва устунлар кўринишида расмийлаштириш мақсадга мувофиқ бўлади. Бу вазифани Колонки банди кўмағида амалга ошириш мумкин.

Абзацларнинг бош ҳарфини алоҳида ажратиб кўрсатиш учун **Буквица** бандига мурожаат қилинади ва натижада жорий абзацдаги вазият пўжудга келади.

Ҳужжатнинг ишлатилиш мақсадига мувофиқ ҳар хил кўринишда расмийлаштиришимиз мумкин, бунинг учун **Библиотека стилей ... ёки Стил...** бандларидан фойдаланишимиз мумкин.



11 — расм. Саҳифада матн ва тасвирларни чегаралаш ва ранглаш

Библиотека стилей ёрдамида жорий ҳужжат учун расмийлаштириш усули танланади, Стиль ёрдамида абзац учун ёзилиш усули белгиланади.

Фон ... банди ёрдамида ҳужжат фонини танлаб олинган ранг билан тўлдириш мумкин.

Ҳужжатларни таҳрир қилиш

Ҳужжатни компьютер хотирасига киритгандан кейин, кўпинча унинг матнини таҳлил қилиш, мавжуд камчиликларни бартараф қилиш зарур бўлади. Бу вазифани **Меню** нинг **Сервис** бўлими бандлари

Вилога оширади ва бу бандларнинг моҳияти қуйидагича:

Таблица	Окно
Присоединение	грамматик ва стилистик хатони тузатиш;
Поиск	ҳужжатнинг тилини белгилаш;
Статистика	Статистик маълумотлар;
Автореферат	файлнинг қискача моҳияти;
Автозамена	белги ва сўзларни алмаштириш
Исправление	ўзгартиришни кўрсатиш ва солиштириш;
Объединить исправления	ўзгартиришларни жамлаш;
Использовать защиту	ҳужжатни ҳимоялаш;
Скрытие	файллардаги ҳужжатларни умумлаштириш;
Конверты и наклейки	конверт ва наклейка ҳосил қилиш;
Макрос	макросни аниқлаш;
Шаблоны и надстройки	шаблонлар ва устқурмалар;
Настройка	меню бандларини таҳрирлаш;
Параметры	Word нинг параметрлари;

Word нинг муҳим ютуқларидан бири унинг компьютерда мавжуд драйверлар ёрдамида турли халқларнинг тилларида ҳужжатлар тайёрлаш имконияти мавжудлигидир. Бунинг учун **Сервис** бўлимининг **Язык** бандидан **Выбрать язык** қисмига ўтилади. Ҳосил бўлган дарчадан мавжуд тил танлаб олинади.

Танлаб олинган тил асосида киритилган ҳужжатдаги грамматик, стилистик ва



орфографик хатолар **Правописание** банди ёрдамида тузатилади.

Эслатма. Айрим компьютерлардан фойдаланувчилар ўз компьютерлари учун кирилл алифбосида ўзбек тилида ёзиш имкониятини яратганлар.

Статистика банди ёрдамида компьютер хотирасига киритилган ҳужжатнинг ҳажми, ундаги сўзлар, белгилар ва сатрлар сонини аниқланади.


Автореферат банди ёрдамида инглиз тилида ёзилган рисоланинг қисқача моҳиятини асосий сўзлардан фойдаланиб, изоҳ кўринишида олиш мумкин.

Автозамена банди кўп учрайдиган белгилашларни қулай кўринишга келтириш ва нотўғри сўзларни керакли тўғри сўзларга алмаштириш вазифасини бажаради.

Исправления банди ўзгартиришларни аниқлаб беради ва ҳужжатнинг дастлабки варианты билан солиштиради. Ҳосил бўлган дарчада солиштириш усули танлаб олинади.

Объединить исправления банди барча ўзгартиришларни бирлаштириб алоҳида файл куришишида сақлаб қўяди.

Установить защиту банди ҳужжатни ҳимоялаш нақсидида калит ўрнатади, баъзи ўзгартиришларни таъқиқлайди.



12—расм. Менюни таҳрирлаш

Настройка... банди фаоллаштирилганда мулоқот дорчаси ҳосил булади. Бу ерда банд менюсининг **Панели инструментов**, **Команды**, **Параметры** бўлимлари мавжуд бўлиб, биринчи бўлим ёрдамида ускуналар панелига қўшимча тутмалар мажмуасини қўшиш ёки кераксизини олиб ташлаш мумкин. **Команды** бўлими ёрдамида **Word**да ажратиб олинган ихтиёрий бўлимларни таҳрир қилиш мумкин. Ҳуңдан ташқари ускуналар панелига янги вазифали тутмаларни қўшиш мумкин. Бунинг учун **Настройка** дорчасининг ўнг қисмидаги керакли ёрлиқнинг устига курсаткич олиб келиниб, у сичқоннинг чап тутмаси босилган ҳолда кўчирилади.

Жадвал ташкил этиш



Жадвал ташкил этиш учун менюдаги **Таблица** бўлимига кириб, **Нарисовать таблицу** қатори танланади. Натижада экранда сўрақ вазифасини бажарган ҳолда сатр ва устунлар сонини киритишни талаб қилувчи ойна ҳосил бўлади. Керакли устун ва сатрлар сони киритилиб [Enter] ёки OK тугмачалари босилади. Киритилган жадвалдаги сатр ёки устунлар сони кўп бўлганда уларни камайтириш учун керакли сатр танлаб олиниб, менюдаги **Таблица** бўлимига кириб, **Удалить ячейки** қатори танланади. Киритилган жадвалдаги сатрлар сони етмай қолганда уларнинг сонини ошириш учун ихтиёрий бир сатр танлаб олиниб, менюдаги **Таблица** бўлимига кириб, **Добавить строки** қаторига келиб, [Enter] тугмачаси ёки

сичқончанинг ўнг тугмачаси босилади. Жадвалдаги катакчалар ўлчамларини ўзгартириш учун менюдаги **Таблица** бўлимига кириб, **Высота и ширина ячеек** қаторига келиб, [Enter] тугмачаси ёки сичқончанинг ўнг тугмачаси босилади, натижада катакчаларнинг ўлчамларини ўзгартириш имкони яратилади.

Сортировка банди жадвалдаги маълумотларни барор белги бўйича ошиб ёки камайиб бориш ёрдами — кетлигида тартибга солади. /

Ҳужжатда тасвирлар чизиш



Ускуналар панелида саҳифага тасвирлар туширишга мўлжалланган махсус тугма бўлиб, фаоллаштирилган ҳолда **Word** саҳифасининг қуйи қисмида тасвирлар тушириш сатри пайдо бўлади.

Бу ерда мавжуд вазифали тугмалар ёрдамида ҳар қил чизмалар ҳосил қилиш учун имкониятлар очилади.



Действия тугмаси фаоллаштирилганда саҳифадаги тасвирнинг жойлашишини тартибга солиш, расм матнининг устида ёки аксинча жойлаштириш ва ҳ.к. амалларни бажариши учун




қуйидаги мулоқотли дарча ҳосил бўлади.

Бу ердаги ҳар банд алоҳида мулоқот дарчасига эга. Масалан , Порядок бандига мурожаат қилинганда ҳосил бўлган дарчадаги қисм бандлар ёрдамида тасвирларни жойлаштириш тартиби аниқланади.

Автофигуры тугмаси саҳифада стандарт шаклларни чегаралаш белгиларини ҳосил қилади.

Буларнинг жумласига турли чизиқлар, блоклар ва схемалар киради.




Основные фигуры банди ёрдамида турли ҳужжатларда ишлатилиши мумкин бўлган чизма ва шакл элементларини ҳосил қилишимиз мумкин.

Выноски бандида тасвирларни изоҳлашда қулайлик туғдирувчи элементлар жамланган. Худди шу сингари бошқа бандларга мурожаат қилиб керакли элементларни матнга туширишимиз мумкин.

Тасвирларни таҳрирлаш сатрида чизини, кўрсаткич, тўртбурчак, эллипс ҳосил килувчи алоҳида вазифали тугмалар ҳам мавжуд.



Кўринишидаги вазифали тугма тасвирлар устига ёзув тушириш учун хизмат қилади.



Тугмаси WordArt дастури алифбосига тегишли турли шаклдаги жилоланувчи ҳарфлар шиорлар ёзиш, зарварақларни тўлдиришда ишлатилиши мумкин



Юқорида келтирилган тугмалар ёрдамида ёпик элементларни ранглаш, чизиқларни — ва шрифтлар рангини ўзгартириш мумкин


Заливка тугмаси тасвирнинг ёпик элементларини ранглайди, истеъмолчи ҳоҳиши бўйича тўлдириш усулини танлайди.



қуйидаги энг сўнги тўртта тугма чизиқларнинг қалинлиги, чизиш усули, кўрсаткичлар йўналиши, шаклларнинг сояси ва ҳажмли элементларни ҳосил қилишга мўлжалланган.



Тень тугмаси тасвирларни соялари билан бирга ҳосил қилади. Соя туширишнинг 18 хил варианты



мавжуд.

Тип линии тугмаси чизиқларнинг қалинлигини билдиради.

Эслатма: Тасвирлар сатрида юқорида ёритилгандан кўраги чизиқ, кўрсаткич, тўртбурчак, эллипс чизиш, расмлар тасвирига ёзувлар ҳосил қилувчи тугмалар мавжуд. Уларнинг баъзисини **Paint** дастури функцияларига ўхшаш бўлгани учун кўпроқ батафсил тўхталамиз.

?

Бевосита компьютерда қуйидаги саволларга амалий жавоб беринг:

1. **Word** матн муҳарририни юкланг.
2. Маълумотларни киритинг.
3. Киритилган маълумотни дискка файл шаклида ёзинг.
4. Кириллча шрифтдан латинча шрифтга ўтинг.
5. Дискдан файлни экранга чақиринг.
6. Матнни таҳрирланг ва хотирада сақланг.
7. Таҳрирланган қисмни бекор қилинг.
8. Матн қисмини ажратинг, уни қирқиб олинг ва махсус жойга нусхаланг.
9. Қуюқ, оғма (курсив) ва одатдаги шрифтлар билан ишланг.
10. Шрифтларни ўзгартиринг (матндаги белгиларини катталаштиринг ва кичрайиринг).
11. Матнни саҳифаларга бўлинг.
12. Матнни чалга, ўнгга ёки ўртага суринг.
13. Махсус символлар билан ишланг (математик, кимёвий формулалар матн тайёрланг).
14. Жадвалли маълумот ташкил этинг ва уни маълумотлар билан тўлдиринг.
15. Формула ва функциялар билан ишланг.
16. Матнга график ва расмлар қўйинг.
17. **Word** нинг бошқа меню буйруқлари билан ишлаш тавсифи билан танишинг.
18. Матнни кўздан кечиринг (10%, 25% да).
19. Матнни чоп қилинг.
20. **Word** матн муҳарриридан чиқинг.



Microsoft Excel

VII ҚИСМ

Электрон
жадваллар билан
ишлан,
Microsoft
Excel дастури



● Сиз китобнинг VII қисмини
мутоала қилиб, *EXCEL* дастури
хақида қуйидаги назарий билим ва
амалий кўникмаларга эга бўласиз:

- EXCEL дастурини юклаш;
- EXCEL да ҳисоблаш ишларини бажариш;
- EXCEL менюси бандлари тавсифи;
- Жадвалга мавзу киритиш;
- Устун кенглигини аниқлаш ва киритиш;
- Устун номини киритиш;
- Жадвални маълумот билан тўлдириш;
- Маълумотли жадвални дискка ёзиш;
- Дискдан жадвални чақириш;
- Формула ва функциялар билан ишлаш;
- Натижавий маълумотли жадвал ҳосил қилиш;
- Жадвални чоп қилиш;
- Устунли ва доиравий диаграммалар ҳосил қилиш;
- Диаграммаларни чоп қилиш;
- Excel дан чиқиш.

Умумий маълумотлар

Excel Microsoft Office пакети таркибидаги дастур бўлиб, у Windows операцион тизими бошқарувида ишловчи ҳамда маълумотли электрон файлларни тайёрлаш ва қайта ишлашга мўлжалланган.

Excel да тайёрланган ҳар бир ҳужжат (маълумотли жадвал) ихтиёрий исм ва .XLS кенгайтмадан иборат файл бўлади. Excel да одатда бундай файл "Иш китоби" (Workbook) деб юритилади.

Microsoft Excel нинг асосий иш соҳаси — бу "Иш китоби" бўлиб, у бир ёки бир нечта иш варақларидан иборат. Иш варағида бухгалтер (ҳисобчи) китоби каби, сонлар, матнлар, арифм

ифодалар, ҳисоблар қатор ва устунларда жойлашган бўлади. Excel нинг бухгалтер китобидан асосий фарқи барча ҳисоб ишларини унинг ўзи бажаради, лекин маълумотларни киритиш фойдаланувчи зиммасига қолади.

Excel электрон жадвали 16384 қатор (row) 256 устун (column)дан иборат. Қаторлар 1дан 16384гача бўлган бутун сонлар билан тартибланган, устунлар эса латин алифбосининг бош ҳарфлари (A, B, ... , Z, AA, AB, ... , IV) билан белгиланган. Қатор ва устун кесишмасида электрон жадвалнинг асосий таркибий элементи — ячейка (cell) жойлашган. Ҳар бир ячейкага сон, матн ёки формула тарзидан маълумотлар киритилади. Устун кенглигини ва қатор баландлигини ўзгартириш ҳам мумкин.

Жадвалнинг танланган ячейкасига ўтиш учун аниқ манзил (адрес) кўрсатилиши керак. У қатор ва устун кесишмасида, масалан A1, B4, F9, AB3 каби кўрсатилади.

Excel дастурини юклаш ва унда ишни тугаллаш

Excel 97 дастурини юклашдан олдин Windows 98 (Windows 95) дастурини юклаш лозим. Бу эса содда, яъни ҳозирги пайтда компьютер юкланиши билан амалга ошади.

Excel дастурини юклаш жараёни қуйидагича:

1. Компьютер ёқилади. Экранда мулоқот ойнаси пайдо бўлиб, фойдаланувчи исми ва пароли сўралса, улар киритилиб Enter тугмачаси босилади.

2. Сичқонча кўрсаткичи экраннинг қуйи қисмида жойлашган Пуск (Start) тугмачасига келтирилиб, чап тугмаси босилади.




1 – расм

3. Сичқонча кўрсаткичи "Программы" бандига натижади ва босилади(1 – расм).

4. Дастурлар рўйхатидан Microsoft Excel танланади сичқонча тугмачаси босилади натижада Excel дастурининг зарварағи экранга чиқади(1 – расм), сўнгра Excelнинг иш жадвали экранга чиқади (2 – расм).

Эслатма. Windows 3.1 да Excel 5.0 версиясини юклаш юқоридагидан фарқли ўлароқ, Microsoft Office гуруҳида Excel пиктограммаси устида сичқонча тугмасини икки марта босиш приқали юкланади.



2—расм.


Excel меню бўлимлари тавсифи

Excel дастури ўз менюси ва ускуналар мажмуасига эга бўлиб, унинг менюсида қуйидаги бўлимлар мавжуд:

**Файл, Правка, Вид, Вставка, Формат, Сервис,
Данные, Окно ва ?**

Юқорида келтирилган бўлимларнинг бандларининг шакли Microsoft office дастурлариникига аксарият ҳолларда ўхшаш бўлса—да, мазмунан Excel нинг мақсад ва вазифаларидан келиб чиқиб тузилган. Бундан ташқари баъзи бўлимлар фақат мазкур дастурга тегишли вазифаларни бажаради

Файл буйруқлар тўплами кўмагида



ЯНГИ ЖАДВАЛ ТАШКИЛ ЭТИШ;

ХОТИРАДАГИ ЖАДВАЛНИ ОЧИШ:

жадвални ёпиш;

жадвални хотирага киритиш;

файлга янги ном бериш;

файлни мослаштириб сақлаш;

ИШЧИ СОҶАСИНИ САҚЛАШ:

саҳифа параметрлари:

ЧОП қилиш соҳасини бериш:

жадвални дастлабки кузатиш;

Жадвални чоп этиш;

файлни керакли манзилга узатиш;

ЖАДВАЛНИНГ ҲОССАЛАРИ;

файллар мажмуаси;



ЧИҚИШ;

Киб и амалларни бажариш мумкин бўлиб, қайд этилган ишлар Microsoft Office гуруҳидаги дастурлар учун умумийдир. Қўшимча Сохранить рабочую область ... ишлатилаётган дастурни экран учун жорий дастурга айлантиради. Область печати дастурнинг белгиланган қисмини чоп этади.

Отправить банди ёрдамида ҳосил қилинган электрон жадваллар ташқи хотираларда сақлаш учун диск юритувчиларига, интернет тармоқларидаги керакли манзилларига жўнатилади.

